

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Z.N.Mamarajabova
M.M.Abdullayeva**

Daktil va imo-ishora nutqiga o'rgatish
(surdopedagogika ta'lism yo'nalishi)

O'quv qo'llanma

Toshkent - 2022

UQL:371.912.

KBK:74.32.

Z.N.Mamarajabova, M.M. Abdullayeva. Daktil va imo-ishora nutqiga o‘rgatish/O‘quv qo‘llanma/Toshkent.2022.182.b.

Mazkur o‘quv qo‘llanamada kar va zaif eshituvchi bolalarni imo-ishora va daktıl nutqiga o‘qitish tizimi tavsifi, imo-ishora va daktıl nutqiga o‘rgatish uslubiyati bayon etilgan. O‘quv qo‘llanmada imo-ishora va daktıl nutqiga o‘qitish metodikasining barcha bo‘limlarida ishlar maxsus mакtabda eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksion yo‘nalishda tashkil etilishi yoritilgan. O‘quv qo‘llanma 5111900 – Defektologiya yo‘nalishi uchun imo-ishora va daktıl nutqiga o‘qitish metodikasi namunaviy dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, talabalar uchun mo‘ljallangan. Mazkur o‘quv qo‘llanma kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus mакtab-internati o‘qituvchilari tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

Ya.Yakubjanova pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

G.Abdullayeva pedagogika fanlari nomzodi, , dotsent

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302- sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

I BOB DAKTIL VA IMO-ISHORA NUTQIGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

§ 1.1. Imo- ishora nutqi bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlash tizimining tuzilmaviy elementi sifatida

Imo-ishoralardan kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida foydalanish ellik ming yil ilgari paydo bo‘lgan, hamda insonlar muloqatida juda katta ahamiyatga bo‘lgan. Shimoliy Amerika hindilar qabilalari va avstraliyaliklar uchun urush va ov sharoitlarida tovushsiz muloqot qulayroq bo‘lgan; bunda ishoralar muloqat quroli va diniy marosimlar komponenti sifatida gavdalangan. Ishora tizimi hindilarning turli qabila guruhlariga yagona, umumiyligiga kengashlar, savdo bitimlarida shaxslararo muloqot vositasi sifatida qo‘llanilgan. U o‘zining grammatikasiga ega bo‘lib, suhbatdoshlarning ehtiyojlarini to‘la qondirgan. Imo-ishoralarga ko‘pincha ma’ruzachi murojaat etgan, uni yordamida ma’ruzachi fikrini ifodalagan, mantiqiy nuqtalar qo‘ygan¹.

Ishoralar ko‘p hollarda san’atning turli sohalarida ham ishlataladi, ular inson hissiyotlari va kayfiyatlarini ifodalaydi, turli vaziyatlarni emotsiyalarni namoyon etadi. Transport, armiya, sport va boshqa sohalarda mustaqil ishoralar tizimi mavjud. Misol uchun, haydovchilarning ishora signallari, nazorat postlardagi tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini; safni boshqarish uchun ishora-buyruqlar to‘plami mavjud; sportning barcha turlarida ishtirokchilarga, ularning millatidan qat’iy nazar xalqaro hakamlarning tushunarli ishoralari bor. Bu nisbatan tor kommunikativ tizimlardan tashqari maqsadi va tuzilishi murakkabligi bo‘yicha yetarli darajada universal muloqot tizimlari mavjud Xususan, karlar imo-ishora muloqot tizimi so‘zsiz, turli ishora muloqot tizimlari ichida eng murakkab tuzilmaga ega. Karlar imo-imo-ishora nutqini anglash va baholash bo‘yicha bir qator taddiqotlar amalga oshirilgan.

P. Ponso o‘z metodikasida nutqning turli: og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishora ko‘rinishlarini qo‘llaydi. X.P.Bonet (1579-1633) o‘zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiatini va kar-soqovni gapirishga o‘rgatish san’ati» asarida

¹ Басова А. Г., Геранкина А. Г. Исторические данные об отношении сурдопедагогов к дактильной и жестовой формам речи в обучении глухих. Сб. «Вопросы сурдопедагогики». — М., 1970. — С. 13—19.

karlarni o‘qitish va tarbiyalashning o‘sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko‘rib chiqar ekan, ularni so‘zlashuv nutqiga daktil va imo-ishora nutq orqali o‘rgatish lozimligi haqida so‘z yuritadi². U kar bolalarni maxsus ravishda tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘qitishi, ta’lim jarayonida nutqni va aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ishlar savol-javob shaklidan foydalangan holda olib borilishi alohida e’tiborli omil sifatida qaraydi. X.P.Bonnet g‘oyalarining keyinchalik taraqqiyotiga Angliyalik J. Vallis (1616-1703) va J.Bulver, Shveysariyalik J.K.Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o‘qitishga alohida urinishlar sifatida o‘z xissalarini qo‘shdilar. Ye.R.Karriion (1579-1652) o‘z zamondoshlari boy tajribasidan unumli foydalangan holda ularning g‘oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta’lim-tarbiyasida imo-ishora nutqi va taktil-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig‘iga tayangan holda ish olib boradi. De Epe tarixda Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma’rifatparvarlarining g‘oyalari bilan yo‘g‘irtitirilgan mimika (imo-ishora) metodining muallifi sifatida nom qoldirdi³. Amaliyotchi olim o‘qitish jarayonida asosiy e’tibor kar bolalarning har tomonlama: aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratish hamda ushba tizim kar bolani umumta’lim fanlariga oid bilimlarni o‘zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorlashi lozimligi masalalariga alohida axamiyat qaratadi. Ammo ushbu vazifalarini hal etish uchun o‘qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalilanadi hamda kar o‘quvchilar uning asosida yozishni o‘rganadilar. Masalan, “mimik yondashuv” tizimi yaratuvchisi Sh.M. Delepe imo-imo-ishora nutqini lingvistik mohiyatini baholashda u davr uchun eng nufuzli universal grammatika nazariyasidan kelib chiqqan⁴. Bu nazariyaga ko‘ra, barcha til kategoriysi o‘zida mantiq kategoriyasini mujassamlaydi. Insoniyatda mantiq yagona bo‘lgani uchun, grammatika ham unga muofiq bo‘lishi kerak. Imo-ishora nutqi karlar o‘rtasidagi muloqotni tabiiy tarzda ta’minlashini tan olib, Sh.M. Delepe uni universal mantiq va grammatika qonunlariga muvofiq qurilgan tizimga aylantirmoqchi bo‘lgan. U so‘z turkumlarini belgilovchi uslubiy ishoralar, ishora-artikllar, ishora-old ko‘makchi va boshqalarni yaratdi. R.A. Sikar, Sh.M. Delepening fikrlariga qo‘shilgan holda, imo-ishora nutqini takomillashtirish bo‘yicha ishni davom ettirdi. U o‘simliklar, minerallar va

³ Дьячков А. И. Системы обучения глухих детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 242 с

⁴ Дьячков А. И. Системы обучения глухих детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 240 с.

boshqalarni belgilovchi ishoralarni butun turkumlarini yaratdi⁵. Biroq, ixtiyoriy ravishda takomillashtirilgan imo-ishora tizim tabiiylik tamoyilga javob berishni to‘xtatdi va karlar tomonidan qabul qilinmadni Uning shogirdi R.A.Sikar Sharl Mishel de Epening g‘oyalarini rivojlantirib, imo-ishoralar tilini «metodik belgilar» bilan boyitadi. Ya’ni ushbu metod asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma’lum bir belgilar o‘rgatib boriladi. Ma’lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko‘pchilikni tashkil etadi. O‘quvchilar hajmi kundan kunga ortib borayotgan belgilarni o‘zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid blimlarni ham o‘zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o‘qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta’limning oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘laligicha hal etish imkonini bermasligini ko‘rsatadi. Aleksandr Blanshe nomi bilan bog‘liq. Amaliyotchi olim o‘z tajribalari asosida kar bolalarni eshituvchi bolalar bilan birgalikda o‘qitish eng samarali yo‘l ekanligini isbotlashga urindi. Bu tizimda tashkil etilgan mакtabda kar bolalar oddiy maktabda alohida sinfda o‘qitilsa, zaif eshituvchilar sog‘lom bolalar bilan birgalikda o‘qitilishlari yo‘lga qo‘yilgan edi. A.Blanshe o‘zining «Ustozga qo‘llanma» (1858) asarida quyidagi uch asosiy qoidani taklif etadi va ularga erishish yo‘llarini batafsил yoritib berishga urinadi⁶ :karlarni bu yo‘l bilan o‘qitishda umumiy metodikaga rioya qilinishi;o‘qitishda karlarning toifalari: kar-soqovlar va gapiruvchi karlarga alohida yondashish;og‘zaki nutqni mimika va daktıl shakli orqali rivojlantirish yo‘llariga rioya qilish lozim. Shuningdek, Fransiyada Jan Jak Valad-Gabel (1801-1879) tomonidan eshitishi me’yorda bo‘lgan go‘daklar nutqining rivojlanish yo‘llariga asoslangan «Intuitv (onalik) metod» yaratiladi. Olim ushbu metod asosida kar bolalar ta’limini tashkil etar ekan, o‘qitishda imo-ishora nutqidan foydalanishni inkor etgan holda og‘zaki (jarangdor) nutqqa qo‘srimcha sifatida birinchi o‘rinda yozuv taxtachalarida aks ettirilgan yozma nutq shakli (yaxlit (global) o‘qish) dan foydalanish yuqori samara berishini ko‘rsatadi. J.J.Valad-Gabel og‘zaki nutq kar-soqovlar uchun o‘zlashtirib bo‘lmaydigan nutq turi bo‘lganligi bois so‘zlashuv nutqiga ular alfavit harflarni alohida emas, balki yaxlit (global) o‘qish asosida o‘rgatilishlari eng samarali yo‘l ekanligini isbotlashga urindi hamda ta’lim jarayonida daktıl nutqiga katta e’tibor qaratadi. 1779 yilda Venada kar-soqovlar instituti ochiladi hamda unda I.May (1754-

⁵ Дьячков А. И. Системы обучения глухих детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 242 с

⁶ Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М., 1991.-56 с.

1874) va F.Shtork (1746-1820) tomonidan mimika o‘qitish metodi takomillashtirilgan holda qayta tuziladi: ta’lim jarayonida daktil alfaviti keng qo‘llana, imo-ishora nutqidan esa yordamchi vosita sifatida foydalana boshlanadi⁷.

Rus surdopedagogikasida A.N. Radishchev karlar hayotida imo-ishoralarni muloqotdagi rolini yuqori baholagan va ularni karlarning tafakkur faoliyatini shaklantirish vositasi deb,e’tirof etgan.⁸.

Imo-ishora nutqi tuzilmasi xususiyatlarini eng to‘liq tahlili V.I. Fleri tomonidan amalga oshirgan⁹. V.I. Fleri imo-imo-ishora nutqini uch turini ajratgan:

- karlar jamoasi imo-ishora nutqi vositasidagi muloqat an’analardan tashqarida tarbiyalangan kar insonning sodda imo-ishoralari; “tabiiy imo-ishora” (so‘zli nutq grammatikasidan farqlanuvchi grammatikali);
- yozuv orqali uzatilmaydigan “ko‘p alomatlar va nihoyatda nozik o‘zgartishlar”ni ifodalashga imkon beruvchi nutq shakli;
- bizning tillarimiz nazariyasiga muvofiq tashkil topgan“ sun’iy imo-ishora”ga ega nutq shakli.

Oxirgi turni V.I. Fleri o‘quvchilarga tushunarsiz deb hisoblagan, chunki unda turli bir-biriga qovushmaydigan unsurlar aralashgan, bunda hammadan ko‘proq hurmatga sazovor tabiiy pantomima kulgili ko‘ringan. Shu bilan birga V.I. Fleri rus tiliga o‘rgatish maqsadida ayrim “grammatik” ishoralarni (ot, fe’l va boshqalarni belgilash uchun) yaratadi. Bu qarashlarga taniqli surdopedagog N.D. Yenko ham qo‘shilgan¹⁰.

N.M. Lagovskiy imo-ishora nutq grammatik shakl va qoidalarni tan olmaydi deb hisoblagan, biroq ishora nutqning karlarning mahsuldor muloqot vositasi funksiyasini tan olgan¹¹. XIX asrning oxiri - XX asrning boshida rus surdopedagoglar N.M. Logovskiy, Ye.G. Lastochkina, I.

⁸ Радищев А. И. Избранные философские сочинения. — М.: Госкомиздат, 1949. — С. 282—386.

⁹Малофеев Н. Н. Современный этап в развитии специального образования в России: Результаты исследования как основа для построения программы развития // Дефектология. — 1997. — № 4. — С. 3—15.

¹⁰ Дьячков А. И. Воспитание и обучение глухонемых детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 241 с

¹¹ Лаговский Н. М. Обучение и призрение глухонемых в России // ВП. гос. имп. Марии Феодоровны. — 1905—1906. — № 1—12; 1906—1907. — № 1—9.;

Vasilev, N.K. Patkanova, ishora nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini muhoqama qilib, imo-ishora nutq kar bolaning og‘zaki muloqotga qo‘shilishiga to‘sinqinlik qilishi va shuning uchun surdopedagoglarga qizig‘i yo‘qligini ta’kidlashgan¹².

Imo-imo-ishora nutqini baholashga ilmiy yondashuvni L.S. Vylgotskiy namoyon qilgan, unda asl nutqning boy funksional ahamiyatini ta’kidlagan.

P.M. Boskis ilk bor tajriba materiallari asosida imo-ishora nutqini tahlil etgan¹³. U tomonidan mimik ifodalashning turli usullari tavsiflangan: harakatlar, kechinmalarni imitatsiya qilish, predmetni ta’riflash (rasm ko‘rinishda keltirish, plastik model), kerakli sifatiga ega predmetni o‘ziga ko‘rsatish; yanada umumlashtirilgan shartli ma’noga ega tarjima ishoralar. U “ko‘p so‘zlik” va “ko‘p ma’nolik” kabi hodisalarni ko‘rib chiqqan. P.M. Boskis mimik nuqtda (u aynan shu atamani ishlatgan, so‘z va mimik iboralarni shaklantirish farqlarni ko‘rib chiqqan holda) grammatik qonuniyatlar yo‘qligi to‘g‘risida fikrni xato deb hisoblagan. Bu karlarning ishora nutqida ayrim grammatik qonuniyatlarini aniqlashning ilk urinishlaridan biri bo‘lgan.

Lingvistika va psixolingvistikadagi zamonaviy tendensiyalarni eng to‘liq inobatga oluvchi G.L. Zaysevaning ko‘p yillik tadqiqotlari rus imo-ishora nutqi – bu ma’nolar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash bo‘yicha leksik va grammatik vositalarning keng to‘plamiga ega o‘ziga xos, betakror lingvistik tizimligini isbotlashga imkon berdi¹⁴. Imo-ishora nutqida asosiy ma’no birligi sifatida ishora, ya’ni, birinchi navbatda qo‘llar qatnashadigan kinestik akt. Ishoraning harakat jihatni va uning vizual idrok qilinishi imo-ishora nutqining asosiy xususiyatlarini belgilaydi: ishorani fazoda ma’lum tarzda joylashtirish imkon (uzoqroq, chaproq va hokazo), ikki qo‘l bilan bir vaqtida bajarish (so‘z

¹²Васильев И. А. Методика обучения глухих речи, письму и чтению. — СПб., 1900. — С. 107—115; Лаговский Н. М. Курсы для подготовки учителей глухонемых при Королевском училище в Берлине // Листок по обучению звуковому способу глухонемых, по воспитанию и призрению их. — 1900.-№ 10—12. — С. 42—46.: Ласточкина Е. Г. О мимике // Второй съезд деятелей по обучению, воспитанию и призрению глухонемых. — СПб, 1904. — С. 31—42.

¹³Боскис Р. М. Мимическая речь глухонемых // Глухие и слабослышащие дети. — М.: АПН РСФСР, 1963. — С. 100—114.

¹⁴Зайцева Г. Л. К вопросу о синтаксисе жестового языка глухих // Дефектология. — 1974. — № 11. — С. 15—20.; Зайцева Г. Л. Использование жестовой речи на уроках литературы в вечерних школах глухих и слабослышащих. — Л.: Л ВЦ ВОГ, 1981. — 51 с.

tilida ikki so‘zni bir vaqtida talaffuz etish mumkin emas). Ishoralar tizimlari vizual substansiyasini birligi milliy imo-ishora nutqidagi bir xil yoki o‘xhash ishoralar mavjudligini izohlaydi. Grammatik universallari ham ajratilgan. Shularni hisobga olgan holda Umumjahon karlar federatsiyasining turli tadbirlari ishtirokchilarini kommunikatsiya qilishni ta’minlovchi xalqaro til – imo-ishora nutqi – yaratildi¹⁵.

G.L. Zaysevaning tadqiqotlarida respublika fanida ilk bor “kalkalashtirilgan imo-ishora nutqi” va “rus imo-ishora nutqi” degan atamalar kiritildi¹⁶ :

- birinchi tushuncha og‘zaki gaplarning har bir so‘zini kalkalashtiradi, ishoralar xuddi og‘zaki nutqdagi tartibda joylashadi. U ikkilamchi belgili tizim deb hisoblanadi.
- Ikkinci tushuncha – bu imo-ishora nutqi vositalari yordamida muloqot qilish tizimi. Bu o‘zining leksika va grammatikasiga ega alohida tizim. Masalan, imo-ishora nutqida ko‘plikni, mansublikni, vaqt davomiyligini, yakunlanganlik, yakunlanmaganlik, modal, fazoviy va hokazo ma’nolarni ifodalash usullari mavjud.

G.L. Zaysevaning fikricha, ishorani bajarish usulini o‘zgartish imkonini va uning konsituatsiya bilan bog‘langan paradigmalarni yaratish qobiliyati ajralmas kompleks ko‘rinishida bo‘ladi. Unda imo-ishoralarning harakat-fazoviy xususiyatlari hamda ularning konsituatsiyaviy ma’nolari o‘zaro bog‘langan va o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi¹⁷.

Imo-ishora nutqi turli leksik, morfologik va sintaksik ma’nolarni ifoda etuvchi o‘ziga xos vositalarning keng to‘plamiga ega. Imo- ishora nutqning asosiy semantik birligi sifatida murakkab tuzilmali belgi. Imo-ishora nutqida ishoraning tuzilishi darajasi (fonologik bilan taqqoslanadigan) mavjudligi isbotlangan. Demak, kalkalashtiradigan imo-ishora nutqi va imo-ishora nutqi har xil lingvistik tuzilmaga ega. Kalkalashtiruvchi imo-ishora nutqi o‘z grammatikasiga ega emas (so‘zli gapni kalkalashtiradi), lekin so‘z ma’nolarini ifodalash uchun turli leksik vositalariga ega. Gaplashuvchi imo-ishora nutqi , aniqrog‘i – barcha milliy imo-ishora nutqi – aslo jo‘nli emas, balki muloqot qilishning yetarli darajada murakkab va o‘ziga xos tizimi. Bu to‘g‘risida

¹⁵GESTUNO International Sign Language of the Deaf Language Gestuel International des Sourds. The British Deaf Association Carlisle- England, 1975. — 170 p.

¹⁷ Зайцева Г. Л. О термине «мимико-жестикуляторная» речь глухих // Дефектология. — 1973. — № 3. — С. 13—21

Amerika va Yevropaning ko‘p mamlakatlarida o‘tgan asrning 70-80 yillarida amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlarining ma’lumotlari ham dalolat beradi (V. Stokoe, Ye. Klima, U. Bellugi)¹⁸.

Demak, hozirgi vaqtida avval ko‘p mutaxassislar tomonidan qabul qilingan (ta’kidlashimiz lozimki, afsuski, mamlakatimizda ayrim olimlar o‘z fikrlarini o‘zgartirmadi) Imo-ishora nutqi jo‘nli lingvistik tizim degan fikr fan tomonidan xatoligi isbotlandi.

Lingvistik tuzilmaning mohiyatiga qarashlar ko‘p ma’noda u yoki bu maktablar va yo‘nalishlar vakillarini o‘zining pedagogik munosabatini ifodalagan.. Kar bolalarni o‘qitishda imo-ishora nutq muammosi bir necha asr mobaynida davom etayotgan keskin bahslarning markazida bo‘lgan va bo‘lmoqda ham. Bu muammo u yoki bu pedagogik maktablar va yo‘nalishlarni tashkil etganlarning metodologik qarashlari, o‘qitishning maqsadi va vazifalari to‘g‘risida tasavvurlar hamda imo-imo-ishora nutqini lingvistik tuzilmani tushunilishiga ko‘ra turli davrlarda har xil hal etilgan.

Imo-ishora nutqining o‘qitish va tarbiyalashdagi rolini baholashda quyidagi asosiy yondashuvlarni ajratish mumkin:

- 1) kar bolaning rivojlanishida imo-imo-ishora nutqini yetakchi rolini tan olish (“mimik yondashuv”, “bilingvistik yondashuv”);
- 2) imo-imo-ishora nutqini o‘qitishdagi rolini butunlay inkor etish (“sof og‘zaki usul”, zamonaviy “oralizm”);
- 3) imo-ishora nutqini pedagogik jarayonning yordamchi vosita (20asr birinchi yarmidagi an’anaviy rus surdopedagogikasi) yoki asosiy vositalaridan biri («total kommunikatsiya») sifatida qo‘shish.

“Mimik usulni”ni yaratgan Sh.M. Delepe i R.A. Sikarlar (Fransiya, XVIII asrning ikkinchi yarmi), individual o‘qitish davrining “ispan” va “ingliz” maktablarini rivojlantirib, imo-ishora nutqini pedagogik jarayoniga kiritilish kerakligi fikrda qattiq turishgan. Volter, Didro, Russo va boshqa olimlarning g‘oyalariga tayanib, Delepe va Sikar surdopedagogika tarixida ilk bor karlarni aqliy va axloqiy rivojlantirish masalasini qo‘yishdi¹⁹. Eshitish qobiliyatidan mahrum bo‘lgan bolalarning bilish faoliyati imkoniyatlariga ishongan Delepe i Sikar bolalarni sog‘ a’zolari asosida rivojlanishi mumkin deb hisoblashgan. Shuning uchun tarbiyaning “tabiiylik”, “tabiatga muvofiqlik” tamoyili (Russo)

¹⁸ William C. Stokoe , Jr. Sign Language Structure: An outline of the visual communication systems of the American Deaf / Buffale 14, new York University of Buffalo, 1960. — 79 p.; Klima E., Bellugi U. The Sing of Language/ — Ganbridge (Mass.): Harvard University Press, 1997. — 417 p.

¹⁹ Дьячков А. И. Системы обучения глухих детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 248 с.

pedagogik jarayoniga bolaga ona tili bo‘lgan, ko‘rish orqali idrok qilinadigan imo-ishora nutqini kiritilishini talab qilgan. Delepe va Sikar karlarning imo-ishora nutqida ularning hissiyotlari va fikrlarini tabiiy tarzda namoyish etishi uslubini ko‘radi. Shuning uchun pedagogik jarayonida ishora tilidagi nutqiy vositalar tizimiga asosiy rol ajratiladi.

Delepening fikriga qarshi chiqqan asosiy olim nazariy negizi batamom boshqa, “sof og‘zaki usul”ni yaratgan S.Geyniqe bo‘lgan (Germaniya, XVIII asrning 70-chi yillari)²⁰. Geyniqe I. Kantning g‘oyalari, xususan, insonning tafakkurini rivojlanishida og‘zaki nutq muhimligi to‘g‘risidagi g‘oyasi (I. Kant), hamda tarbiyaning ustuvor maqsadi “rasmiy” ta’lim, tafakkur va nutqni rivojlantirish degan fikrga asoslangan²¹ A. Disterveg konsepsiyasidan (A. Disterveg) kelib chiqqan²². Demak, Geyniqe fikricha karlar o‘qitishning asosiy vazifasi – bu ularda og‘zaki nutqni shakllantirish sanaladi. Geyniqe va uning izdoshlari imo-ishora nutq yordamida karlarning tafakkur amallarini rivojlantirish masalasini yechish mumkin emasligini taxmin qilishgan, chunki ishoralar abstrakt tushunchalarni ifodalashga qodir emas. “Sof og‘zaki usul”da imo-ishora nutqi nafaqat o‘qitishda qo‘llanmagan, balki u karlarning shaxslararo muloqot uslubi sifatida har qanaqasiga ta’qib qilingan.

Kar bolalarni o‘qitishning xorijdagi zamonaviy yo‘nalishlari to‘g‘risida gap ketsa, «oralizm» tarafdorlari amalda klassik “sof og‘zaki usul” bilan asoslashdan foydalanadi va shunday qilib pedagogik jarayondan imo-ishora nutqini chiqarib tashlaydi. Binobarin «total kommunikatsiya» vakillari ko‘p jihatdan Delepe qarashlariga qo‘shiladi va karlar maktabida barcha nutqiy vositalaridan, shu hisobda imo-shora nutqidan, foydalanish maqsadga muvofiqligini qattiq turib ma’qullahsgan. “Mimik usul” g‘oyasini kar bolalarni o‘qitishning “bilingvistik usul” nomli tizimini yaratgan olimlar eng izchil rivojlantirgan. Bu tizim G‘arbiy Yevropa va Amerika mamlakatlarida o‘tgan asrning 70-chi - 80-chi yillarida shakllanib boshlagan. “Bilingvistik usul”ning nazariy platformasi zamonaviy fanning eng yangi yutuqlariga asoslangan: lingvistika, psixologiya, psixolingvistika, sotsiologiya va hokazo.

Lingvistik tadqiqotlarining natijalari imo-ishora nutqining kar bolalarning kommunikativ va kognitiv faoliyatidagi roli bilan bog‘liq muammolarni yechishga boshqacha yondashishga imkon berdi. Oxirgi o‘n yilliklardagi

²⁰ Дьячков А. И. Системы обучения глухих детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 248 с.

²¹ Кант И. Антропология с pragmatической точки зрения // Собр. соч.: В 6 т. — М., 1966. — Т. 6. — С. 349—588.

²² Дистервег А. Руководство к образованию немецких учителей // Избр. педагог, соч. — М., 1956. — С. 136—203

psixologik va psixolingvistik tadqiqotlar quyidagini isbotladi:

- imo-ishora nutq bolaning psixik rivojlanishida;
- bilim, malaka va ko'nikmani shakllanish jarayonlarida;
- kar shaxsini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Imo-ishora nutqini rivojlangan tabiiy tillardan biri sifatida tan olinishni, karlar hayotida, kommunikativ va kognitiv faoliyatida imo-ishora nutqini muhim roli tan olinishi kar insonlarning jamiyat a'zolari sifatida qarashlarning o'zgartishiga olib keldi.

Zamonaviy madaniy sotsiologik konsepsiyalarda sivilizatsiyalangan jamiyatning taraqqiyoti uning tarkibidagi milliy, diniy, til va boshqa an'analar bilan farqlanadigan mikrosotsiumlarning o'zaro harakatlanishi muvaffaqiyatligiga bog'liq. Bunday mikrosotsiumlar a'zolari qandaydir barcha uchun yagona "standart"ga mos bo'lishi shart emas, balki o'zining alohida ehtiyojlarini amalga oshirishga to'la huquqqa ega. Bu jamiyatni nogironlarga, shu hisobdan, kar odamlarga, munosabatini tubdan o'zgartirdi. Endi kar insonlardan "ko'pchilikka, eshitadiganlarga, o'xshab bo'lishi talab qilinmaydi. Va shu o'zini karlar mikrosotsiumi a'zolari deb hisoblagan kar odamlar o'zlarini o'ziga hos shaxs sifatida ro'yobga chiqilishi, o'z madaniyatini rivojlantirish, o'z tili egalik qilish, milliy ishora tilida ta'lim olish huquqiga ega²³.

Aynan shu qoidalar "bilingvistik yondashuv" tizimining platformasiga joylashgan. "Bilingvistik yondashuv" rahnamolari ta'kidlashicha, kar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ikki teng huquqli nutqiy vositalardan foydalanish kerak: milliy til (ingliz, nemis va hokazo) va milliy ishora tili.

Rossiyada imo-ishora nutqini o'qitishdagi roliga qarashlar mamlakatdagi karlarni o'qitish tizimi shakllanishi bilan chambarchas bog'langan holda shakllangan. Bu tizim karlarni o'qitish va tarbiyalash ishora nutqi yordamida (XVIII asrdan boshlab) olib borilgan karlarni tarbiyalash uylari tajribasi hamda imo-ishora nutqini karlarning psixik rivojlanishini muhim vositasi deb hisoblagan A.N. Radishchevning g'oyalari asosida shakllanib borgan²⁴.

XIX asrning birinchi yarmida (G.A. Gursev, V.I. Fleri va boshqalar) Rossiyadagi karlar uchun maktablarda keng doiradagi masallarni (axloqiy tarbiya, bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish va hokazo) yechish nazarda

²³ Зайцева Г. Л. Зачем учить глухих детей жестовой речи? // Дефектология. — 1995. — № 2. — С. 3—8.

²⁴ Радищев А. И. Избранные философские сочинения. — М.: Госкомиздат, 1949. — С. 282—386

tutilgan²⁵. Bu maqsadda barcha nutqiy vositalar ishlatilgan: so‘z nutqi (og‘zaki, yozma va taktil shakllarda) va imo-ishora nutqi. Imo-ishora nutqi bilan bog‘liq ko‘p masalalar batafsil, hayron qoladigan darajada, oldindan ko‘ra bilib, V.I. Fleri fikricha ishora nutqi – bu karlarni o‘qitishdagi “vaqtincha dastak” va uni qo‘llanishi (asosan “tabiiy imo-ishora”) o‘qitishning boshlang‘ich davrida maqsadli og‘zaki nutqini egallashiga qarab, ishora nutqi asta sekin yordamchi vositaga aylanadi. V.I. Fleri ishonganki, surdopedagog “... uch uslubni: mimika, yozuv va so‘z – birlashtirish va mumkin qadar ularni uyg‘unlashtirish maqsadida” imo-ishora nutqini egallashi, kar bolalar bilan ishlashni bilishi kerak. V.I. Fleri va G.A. Gursevalarning qarashlariga asosan XIX asrning 50-60 yillarida faoliyat qilgan Ya.T. Speshnev, I. Ya. Seleznev va boshqa pedagoglar qo‘shilgan .

Biroq 70-chi yillar oxiriga kelib (A.F. Ostrogradskiydan boshlab), Rossiyada karlar uchun maktablar asta sekin “sof og‘zaki usul” ta’sirida o‘z ishini qayta qo‘rib boshlaydi ²⁶. Imo-ishora nutqdan foydalanish maqsadga muvofiqligi qat’iyan inkor etiladi. Binobarin qiziqarligi shuki, imo-iishora nutqi mutaxassislarni chuqur qiziqtiradi. Masalan, “sof og‘zaki usul”ni haqiqiy tarafdori N.M. Lagovskiy o‘zining “Karlarni og‘zaki nutqqa o‘qitish” nomli kitobida ishora nutqiga alohida bo‘limni bag‘ishlaydi²⁷. Kar bolalar bilan ishlash bo‘yicha yetarli tajribaga ega muallif xulosa qiladiki, imo-ishora nutqi shaxslararo muloqot vositasi sifatida kar bolalarga katta afzalliliklar beradi, uni yordamida, masalan, estetik tarbiyalashni amalga oshirish mumkin va hokazo. Biroq, N.M. Lagovskiyning fikricha, bularning hammasi og‘zaki nutq shakllanishi uchun xavflisanaladi.. Shundan xulosa – imo-ishora nutqini darslarda foydalanishdan va o‘quvchilarni o‘zaro muloqotidan chiqarib tashlash kerak.

Rossiyada “sof og‘zaki usul” XIX asrning oxirida - XX asrning boshlanishida keng tarqalgan. “Sof og‘zaki usul”i bo‘yicha mamlakat maktablarining aksariyati Oktabr inqilobidan keyingi birinchi o‘n yilliklarda ham ishlashgan.

Biroq, asta sekin, ko‘p mutaxassislarning nazariy-eksperimental ishlari

²⁵ Флери В. И. Язык мимический. О природной пантомиме / Хрестоматия по истории воспитания и обучения глухонемых детей в России. — М.: Учпедгиз, 1949. — С. 33—39.;Хрестоматия по истории воспитания и обучения глухонемых детей в России / Сост. А. И. Дьячков, А. Д. Доброда. — М., 1949. — Т. 1. — 392 с.

²⁶ Хрестоматия по истории воспитания и обучения глухонемых детей в России / Сост. А. И. Дьячков, А. Д. Доброда. — М., 1949. — Т. 1. — 392 с.

²⁷ Хрестоматия по истории воспитания и обучения глухонемых детей в России / Сост. А. И. Дьячков, А. Д. Доброда. — М., 1949. — Т. 1. — 392 с.

jarayonida, eng yaxshi pedagogik jamoalari tajribasini umumlashtirish natijasida sovet surdopedagogika konsepsiysi shakllanib boshlaydi. “Sof og‘zaki usul”ini yangi masalalarни yechishga mos emasligi yaqqol ko‘rinadi. Karlarni o‘qitish va tarbiyalashning mazmuni, usullari va nutqiy vositalarini qayta ko‘rib chiqishning nazariy asosiga L.S. Vygotskiy tomonidan katta hissa qo‘shilgan²⁸. L.S. Vygotskiyning nuqson mohiyati va tuzilmasini aniqlashga yondashuvi unga so‘z nutqini shakllanish masalasini muhim, lekin o‘quv-tarbiyaviy ishning yagona komponenti emasligi deb ko‘rib chiqishga imkon berdi; uning fikricha, o‘quv-tarbiyaviy ish umuman nuqsonni korreksiyalashga va kompensatsiya qilishga, bolalarni ijtimoiy tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Muammoni nazariy o‘rganish, eksperimental tadqiqotlar ma’lumotlarini tahlili, xorijiy mutaxassislarining tajribasi bilan tanishish natijasida L.S. Vygotskiy xulosaga keladiki, karlarning har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy tarbiyalash masalalarini hal etish uchun pedagogik ta’sir etish nutqiy vositalar tizimini kengaytirish, “kar-soqovlar nutqining ayrim turlariga, birinchi navbatda, mimika va yozma nutqqa, an’anaviy nazariy va amaliy munosabatni qayta baholash” zarur.

L.S. Vygotskiy, sovet surdopedagogikasida birinchilar qatorida ishora nutqi masalalariga amaliy yondashib: “kar bolalarning ruxsat berilgan nutqiy muloqot doirasidan mimikani haydar chiqarib, surdopedagogika shu harakati bilan o‘zining doirasidan kar-soqov bolaning jamoaviy hayot va faoliyatidan katta qismni o‘chirib tashlayapti”. degan fikrni bayon etadi. L.S. Vygotskiyning imo-ishora nutq - bu “o‘zining funksional mazmuni barcha boyligidagi asl nutq” degan fikri jahon fanida yangilik. Imo-ishora nutqini rivojlangan kommunikativ tizim sifatida tan olishi J.I.S. Vygotskiyga kar bolaning rivojlanish xususiyatlarini poliglossiya sharoitda rivojlanish deb ko‘rishga imkon berdi. O‘z qarashlarini J.I.S. Vygotskiy Kar bolalar o‘qituvchilarning umumrossiya konferensiyasida (1930) ta’riflab berdi²⁹: “... biz mimikaga nazar-pisand qilish munosabatda bo‘lmasdan va uni dushman sifatida mensimay, nutqning turli shakllari nafaqat bir-biriga raqib bo‘lmasligi va o‘zaro bir-birini rivojlanishini sekinlashtirmasligi, balki ular kar bolaning nutqni egallashga ko‘tariladigan

²⁸ Выготский Л. С. К вопросу о речевом развитии и воспитании глухонемого ребенка. Собр. соч.: В 6 т. — М.: Педагогика, 1984. — Т. 5. Основы дефектологии. — С. 329—330.

²⁹ Выготский Л. С. К вопросу о речевом развитии и воспитании глухонемого ребенка. Собр. соч.: В 6 т. — М.: Педагогика, 1984. — Т. 5. Основы дефектологии. — С. 329—330.;

zinapoyasi sifatida tushinib, kar bolaning nutqiy faoliyati barcha imkoniyatlaridan foydalanishimiz kerak. Shuning uchun kar-soqov bola uddalaydigan nutqning barcha turlaridan maksimal ravishda foydalanish – bu kar-soqov bolalarni tarbiyalashni tubdan yaxshilashning kerakli sharti”.

L.S. Vygotskiyning asarlari R.M. Boskis va N.G. Morozova, V.V. Oppel va boshqalarning imo-ishora nutqi bo‘yicha tadqiqotlari rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

R.M. Boskis va N.G. Morozovalar keng eksperimental materialni to‘plashgan. Ular tomonidan aniq didaktik masalalarni yechish uchun karlarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida imo-ishora nutqidan foydalanish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa chiqarilgan³⁰.

L.S. Vygotskiy, R.M. Boskis, N.G. Morozova va boshqa mutaxassislarining tadqiqotlari, maktab ishlari bo‘yicha yig‘ilgan tajriba 1938 yildagi Umumrossiya yig‘ilishi tasdiqlagan masalalarni hal etishni ta’minlashga qaratilgan nutqiy vositalar tizimini ishlab chiqishga imkon yaratdi³¹. Mamlakatimiz mutaxassislarining ko‘p yillik nazariy va amaliy izlanishlarning natijasi bo‘lgan bu yig‘ilish “sof og‘zaki usul”ning amaliy hukmronligiga yakun yasadi. Yig‘ilishda mamlakat surdopedagogikasini yanada rivojlantirishning asosiy va aniqlovchi didaktik tamoyili shakllantirildi: bola shaxsini so‘z nutqi va so‘z-mantiqiy tafakkurini shakllantirish negizida fanlar asoslariga o‘qitish va har tomonlama rivojlantirish. Bu talabni amalga oshirish uchun asosiy nutqiy vositalar sifatida so‘z nutqining og‘zaki va yozma shakllaridan, yordamchi vositalar sifatida esa – daktil (3-chi sinfdan) va ishora nutqidan foydalanish taklif etilgan.

Afsuski, 1938 yildagi yig‘ilishdan keyingi imo-ishora nutqi muammozi bo‘yicha tadqiqotlar kichik yoshdagi kar o‘quvchilarning muloqot tizimi xususiyatlarini aniqlash (P.M. Boskis, N.G. Morozova), hamda imo-ishora nutqini karlarning bilish faoliyatidagi roli aniqlash (A.I. Dyachkov, T.V. Rozanova) bilan bog‘liq³². Bu tadqiqotlar ko‘p sonli bo‘lmagan. Shuning

³⁰ Боскис Р. М., Морозова Н. Г. О развитии мимической речи глухонемого ребенка и ее роли в процессе обучения и воспитания глухонемых / Вопросы учебно-воспитательной работы в школе для глухонемых. Бюллетень. — 1939. — № 7, 10. — С. 6—35.; Оппель В. В. Кинетическая речь глухих. Глухонемота, глухота и тугоухость. Сб. ст. Ленинградского института глухонемых. — Л., 1936. — С. 135—168, 210.

³¹ Васильев И. А. Методика обучения глухих речи, письму и чтению. — СПб., 1900. — С. 107—115.

³² Боскис Р. М., Морозова Н. Г. О развитии мимической речи глухонемого ребенка и ее роли в процессе обучения и воспитания глухонемых / Вопросы учебно-

uchun mutaxassislar “imo-ishora nutqi – o‘qitish va tarbiyalashning yordamchi vositasi” degan qoidani turlicha tushunishgan va talqin qilishgan. Masalan, A.I. Dyachkovaning fikricha, imo-ishora nutqidan karlarni o‘qitish va tarbiyalashning asosiy vositasi – og‘zaki nutqi – bilan bir qatorda yordamchi vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Binobarin, S.A. Zыkov taxmin qilganki, kar o‘quvchilarni o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida o‘qituvchining ayrim ko‘rsatish va mimik harakatlari ma’lum rol o‘ynashi mumkin, o‘qitishning keyingi bosqichlarida esa imo-ishora nutqi yordamchi vosita rolini egallaydi³³ (S.A. Zыkov).Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o‘ziga xos shaklidir. U so‘zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakatga ko‘ra yozma nutqqa o‘xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo‘l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O‘zbek tilining har bir harfi o‘zining harakatli ifodasiga egadir. Karga daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

- chizuvchi harflar (z, b, d);
- harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
- shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so‘zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko‘ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog‘cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o‘rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ye.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og‘zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda og‘zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo‘ladi, ba’zan daktillash og‘zaki nutqni bayon etishda oldindan o‘tib ketish hollari ham ko‘zatiladi. Daktilologiya og‘zaki nutqni o‘zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo‘llaniladi. L.A.Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o‘tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko‘ra

воспитательной работы в школе для глухонемых. Бюллетень. — 1939. — № 7, 10. — С. 6—35.; Дьячков А. И. Воспитание и обучение глухонемых детей. — М.: АПН РСФСР, 1961. — 241 с.; Розанова Т. В. Различия в запоминании слов и мимико-языковых обозначений. Психология глухих детей. — М., 1971. — С. 115—117.

³³ Зыков С. А. Проблемы сурдопедагогики. — М., 1997. — 230 с

daktilologiya ham og‘zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo‘riladi³⁴. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo‘l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagи nutqiy kinestiziylar, qo‘l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo‘lib, tadqiqot ob’ekti sifatidan o‘rganish talab etiladi. Ye.N.Marsinovskiy daktillash tempi og‘zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta’sirini o‘rgatgan. Bu tajribalar ko‘rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshm o‘rganganda daktilologiya og‘zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to‘g‘riliqi, nutqni tushunarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o‘quvchilar so‘zning tovush sostavini to‘liq egallaydi. Ularda so‘zning tovush va daktil obrazi o‘rtasida shartli aloqalar o‘rnataladi. Lekin so‘zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o‘rganishda daktilologiya ta’sir ko‘rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o‘zaro munosabati juda murakkabdir. S.A.Zykov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o‘rgatishning boshlang‘ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so‘zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o‘qishini ko‘rish mumkin. Kar bola og‘zaki nutqqa ega bo‘lganligi uchun savodga o‘rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So‘ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So‘zlashuv nutqini egallah darajasiga ko‘ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so‘zni talaffuz etib, so‘ng yozadi. Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o‘qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o‘qiladi, shu o‘qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o‘qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy Samara beradi. Labdan o‘qishning koloreya tizimida o‘z ifodasini topgan.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tomonidan keng qo‘llaniladigan imo-ishora nutqi muloqotga ehtiyoj yuzaga kelish natijasida namoyon

³⁴ Малофеев Н. Н. Современный этап в развитии специального образования в России: Результаты исследования как основа для построения программы развития // Дефектология. — 1997. — № 4. — С. 3—15.

bo‘ladi. Kar bola qo‘llaydigan tabiiy dastlabki imo-ishoralar juda sodda bo‘ladi. Masalan, u biror narsani xohlasa, uni qo‘li bilan ko‘rsatadi. Astasekin bu jarayon murakkablashib boradi, shartli harakterga ega bo‘lib, muloqot funksiyasini bajara boshlaydi. So‘zlashuv nutqidan farqli, imo-ishora nutqi ko‘rvu va harakat sezgilari asosida namoyon bo‘ladi. So‘zning realizatsiya vositasi tovush yoki grafik qobiq bo‘lsa, imo-ishora nutqining vositasi qul harakatlari va unga mos yuzning mimik ifodalari. Bizning nutqimiz ikki funksiyani bajaradi: muloqot vositasi va tafakkur quroli. Ma’lumki, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo‘ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta’kidlash joiz. Bu jihatdan u og‘zaki nutq shakliga o‘xshashdir. Lekin u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o‘rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo‘ladi. Nutq tafakkur quroli sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘zini birinchi vazifasini bajara olmashi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko‘rsata olmaydi. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So‘zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o‘ziga xosliklarga egadir. Ayrim mimik belgilar so‘z kabi muloqot elementiga egadir. So‘z qat’iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat’iy bo‘lmaydi. Ko‘p tushunchalar kar shaxslar o‘rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning harakteri ta’lim jarayonida so‘zlashuv nutqi vositasida o‘zgarishi mumkin. So‘z tarkibida tovush kompleksi va ma’nosи bo‘yicha mustahkamlash aloqasi mavjud bo‘lib, uni ixtiyoriy buzib bo‘lmaydi. So‘zning tovush tarkibi bo‘zilsa, u o‘zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma’nosи bilan umumiyl bog‘liqqa ega emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol nomayon bo‘ladi. Ko‘p olimlar mimik belgilarini tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M.Boskil, G.L. Zayseva, N.F.Slezina). Ularning ilmiy ishi natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin³⁵:

³⁵Морозова Н. Г. О безъязычных глухонемых и овладении ими словесной речью // Вопросы языкоznания. — 1963. — Мб. — С. 56—58.; Боскис Р. М. Мимическая речь глухонемых // Глухие и слабослышащие дети. — М.: АПН РСФСР, 1963. — С. 100—114.; Зайцева Г. Л. Жестовая речь в системе речевых средств при обучении взрослых глухих в процессе обучения. — М., 1986. — С. 9—17.; Зайцева Г. Л., Слезина Н. Ф.

- Ko‘rvu sezgisiga asoslangan belgilari:
 - ko‘rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko‘z, stol, shkaf, u);
 - predmet konturi yoki uning harakterli xususiyatlar
 - ko‘rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, g‘oz, ona);
 - to‘liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi harakterlar.
- Sezgilariga asoslangan belgilar.
- Xid sezgilariga asoslangan belgilar.
- Teri sezgilariga asoslangan belgilar.
- Xid sezgilariga asoslangan belgilar.
- Moza ta’lim sezgilariga asoslangan belgilar.
- Organik sezgilarga asoslangan belgilar.
- Ematsional sezgilarga asoslangan belgilar.
- Mimiko-daktil sezgilar
- Tabiiy sezgilar
- Shartli sezgilar
- Sonni ifodalovchi sezgilar
- O‘tkazuvchan mimik sezgilar

Mimik belgilar tarkibi qat’iy va bir turga ega bo‘lmaydi. Karlar Yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so‘z paydo bo‘lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, kompyuto). Ayrim mimik belgilar bir tomonidan konkret va ko‘rgazmaliligi, ikki tomonidan diffuzligi va differensiallashmaganligi bilan harakterlanadi³⁶. Shuning uchun, uy belgisi ko‘p qavatli uy, hovli joy ma’nosidagi ishlatalishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko‘p uchraydi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarining ta’lim tizimida so‘zlashuv nutqi o‘zgarib boradi va mimik belgilar yanada differensiyalanib boradi. Avval kar bola turli turdosh qurilishlarni uy belgisi bilan markali mashinalarni belgisi bilan ifodalanmasa, so‘zlashuv nutqi yordamida yangi differensiallashgan belgilarni qo‘llay boshlandi. Har qaysi mimik belgi qoidadir, ob’ektiv realligi ifodalasa ham, har shakllarni turli jamoalarida turlichayt ma’noda kelish mumkin. Bu avvalo ko‘rsatish, plastik va imitatsyalovchi belgilarga xosdir. Mimik belgida emotsiyonal belgi so‘zga nisbatan yorqli ifodalanadi. Mimikada predmet xodisani belgilanish va unga munosabat bir vaqtda ifodalanadi. Nutqning ikki

³⁶ Мимико-жестовая речь. Психология глухих детей. — М., 1971. — С. 240—248.

³⁶ Зайцева Г. Л. Жестовая речь в системе речевых средств при обучении взрослых глухих в процессе обучения. — М., 1986. — С. 9—17.

tomonni uning grammatik tomonida yordamida tilning ovoz qismi ma'noli harakter kasb etadi. Mimik imo-ishora nutqi o'zining grammatik tuzilishiga egami? Imo-ishora nutqi grammatik tuzilishga ega bo'lмаган, agrammotik nutqdir. Lekin bu ushbu nutq turixaotik degan ma'noni bildirmaydi. Imo-ishora nutqida ham gap tuzishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Nutqda har bir so'z ma'lum grammatik shaklga egadir, u gapda boshqa so'zlar bilan muloqotga kirishishi bilan grammatik shakli o'zgaradi. Mimik belgisini shakli esa o'zgaruvchan bo'lmaydi, u gapda boshqa ishoralar bilan kelganda ham grammatik jihatdan o'zgartirmaydi. Mimik belgi so'zga nisbatan grammatik jihatdan sodda bo'ladi, lekin mimik gap qo'rinishda nutq qismlarni qo'llashda o'ziga xos tendensiyani ko'rish mumkin. So'zlashuv nutqida va imo-ishora nutqida ham gaplarda so'zlarni joylashish tartibi bir xil bo'ladi. Xususan, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat. Yoyiq gapni so'zlashuv va imo-ishora nutqida joylashish tartibi bir xildir.

Imo-ishora nutqida qo'shimcha gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi yuklama qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqi egallash jarayoniga kar bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-ishora nutqi ham so'zlashuv nutqi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. Ba'zan yozma yoki og'zaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni o'zida ifodalaydi: gap bo'laklarini o'rnini almashib qolishi, so'zlarni grammatik aloqasini buzilishi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni imo-ishora nutqi so'zlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan so'z va mimik belgini solishtirganda, gapdagi so'z bo'laklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqga nisbatan chegaralanganligi, takomillashmaganligiga qaramay imo-ishora nutqi kar shaxslari uchun asosiy muloqot quolidir. Pedagogik jarayonida imo-ishora nutqidan foydalanish ilk bosqichlarda yaxshi samara beradi. Lekin eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi ta'lim jarayonining bosh maqsadi ularning og'zaki nutqini shakllantirishdir.

Butunlay shubhasizki, imo-ishora nutqini pedagogik jarayonidagi roli va joyini aniqlash muammoning turli jihatlarini maxsus o'rganishni talab qiladi.

Oltmishinchchi yillarining oxirida karlarning imo-ishora nutqi

mamlakatimizda ilk bor maxsus tadqiqot predmeti bo‘ladi. Muammoni ko‘p yillar davomida eksperimental va nazariy o‘rganish, ishora tili tuzilmasi xususiyatlarini aniqlash, imo-imo-ishora nutqini karlarning kognitiv va kommunikativ faoliyatidagi roli va hokazolar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni ko‘rib chiqish, G.L. Zaysevaga im-ishora nutqining pedagogik va uslubiy masalalarini, shu hisobda, imo-ishora nutqini karlar uchun kechki maktablaridagi roli va o‘rnini, asoslab muhokama qilishga, 90-chi yillardan esa – Rossiyaning bilingvistik konsepsiyasini ishlab chiqishga va 1992 yildan boshlab muvaffaqiyatli ishlab keluvchi Moskva bilingvistik gimnaziyasiga rahbarlik qilishga imkon berdi. Bugungi kunda karlarni o‘qitishda yanada kengroq tarqalayotgan bilingvistik yondashuv o‘qituvchilar tomonidan imo-imo-ishora nutqini erkin egallash kabi muammoni yechishni talab qiladi. G.L. Zayseva tomonidan olingan ma’lumotlar, shu hisobdan, karlar uchun maktablari o‘qituvchilari tomonidan imo-ishora nutqini egallash darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, muallifni surdopedagoglarni imo-ishora nutq bo‘yicha tayyorlashga jiddiy o‘zgartishlar kiritish zarurligi to‘g‘risida xulosaga olib keldi³⁷.

Imo-ishora nutqining yangi mavqeい, zamonaviy g‘arb jamiyatida karlarni o‘qitishda va ularga xizmat qilishda imo-ishora nutqini keng qo‘llanishi surdopedagoglarni tayyorlash tizimida uning rolini qayta ko‘rib zaruratini ta’miladi. .

³⁷ Зайцева Г. Л. Использование жестовой речи на уроках литературы в вечерних школах глухих и слабослышащих. — Л.: Л ВЦ ВОГ, 1981. — 51 с. Зайцева Г. Л. Зачем учить глухих детей жестовой речи? // Дефектология. — 1995. — № 2. — С. 3—8.

§ 1.2. Bo'lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o'rgatish - ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida

Zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash haqida g'amxo'rlik qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan demokratik va bozor islohatlari talablariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish va tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi. Bu borada shakllangan qonunchilik bazasi mazkur jarayonlarning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: «Biz jamiyatimizdagi quyi pog'onadagi tartib, intizom va mas'uliyatni mutlaqo o'zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz – yoshlar bilan shug'ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug'ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Mas'uliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo'yishimiz kerak»³⁸. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ushbu muhim sohada chuqur islohatlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyoti shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik hamda madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor soha sifatida qonunan belgilab qo'yildi. Har jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalash, jamiyat hayotining turli sohalari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash – mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohatlarning bosh maqsadidir.

Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. Defektologik ta'lim oliy pedagogik ta'limning sohasi bo'lib, ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ta'lim-tarbiyaviy, korreksion ish uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Urganch davlat pedagogika institutlarida amalga oshiriladi. Mazkur universitetning bakalavr ta'lim bosqichida – bakalavr-surdopedagog, magistratura ta'lim bosqichida esa – surdopedagog mutaxassisliklari beriladi.

³⁸ Ш.М.Мирзиёев [Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. -56 б.](#)

O‘qituvchi-surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash sohasi yangi g‘oyalar, konsepsiyalarga, innovatsion usullarga muhtoj bo‘lib, ularni qo‘llash natijasida yuqori malakali mutaxassislar ko‘magida kar va zaif eshituvchi bolalarga ta’lim berish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish jahon andozalari darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Zamonaviy mehnat bozorida nafaqat bilimli, balki turli toifadagi insonlar bilan imo-ishora nutysi vositasida muloqatga kirisha oladigan, jamoada ishslash qobilyatiga ega, o‘zgalarni qiziqtirib, jalb eta olish singari qator muhim ijtimoiy malakalarga ega mutaxassis ko‘proq ustunlikka ega. Imo-ishora nutqi vositasidagi katta hajm va turli mazmundagi axborotlarni egallay olish, ularni tahlil etish, tizimlash, mustaqil xulosa chiqarish, shaxsiy qarorlar qabul qilish va mazkur qaror natijalarini oldindan ko‘ra bilish singari qobiliyatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Sanab o‘tilgan faoliyat shakllari kommunikativ saviyaning muhim elementi bo‘lib, shaxsning tegishli sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ishlari esa – mutaxassislar tayyorlashning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Mutaxassis oldiga qo‘yilayotgan talablar majmuasida imo-ishora nutqini mustaqil o‘zlashtira olish ko‘nikmasi katta o‘rin egallab bormoqda. Shu bois, raqobatbardosh surdopedagog mutaxassislarni tayyorlash imo-ishora nutqiga o‘rgatishni yangi texnologiyalarini qo‘llashning usul, metod va vositalari bilan qurollantirishdan iborat. Zero, taniqli olim va pedagog F.F.Rau ta’kidlaganidek: «O‘tmish surdopedagoglarning tajribasi, surdopedagogikaning rivojlanish tarixi haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lgan surdopedagoggina o‘tmish xatoliklarini takrorlashdan kafolatlanadi hamda ishiga ijodiy yondasha olish va o‘z g‘oyalarini ishonchli tarzda olg‘a sura olish imkoniga ega bo‘ladi»³⁹.

XVI—XVII asrlarda individual o‘qitish rivojlangan davrda, keyinchalik eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning jamoaviy (maktab) shakli boshlangan XVIII asrda surdopedagoglarni maxsus tayyorlash amalga oshirilmagan. O‘qituvchilar moslashishgan va kar bolalar bilan ishlagan hamkasblarining tajribalari qo‘llashgan⁴⁰. Bu davrda eng muhim deb amaliy tayyorgarlik, kar bolalarni o‘qitishning va ular bilan muloqot qilishning maxsus qoidalarini egallah bo‘lgan.

Ko‘pincha pedagogik ishni individual yoki maktab ta’limni olgan karlar

³⁹ Сурдопедагогика / Под ред. М.И. Никитиной. -М., 1999. - 86 с

⁴⁰ Назарова Н. М. Развитие теории и практики дефектологического образования. Сурдопедагогика: История, современные проблемы, перспективы профессиональной подготовки. — М., 1992. — 163 с.

olib borgan. Ular o‘zlarni o‘qitishda foydalanilgan usul va qoidalarni, hamda atrofdagilarni tajribasini qo‘llashgan. Ba’zida bunday faoliyat xalqaro mavqega ega bo‘lgan. Masalan, R.A. Sikarning shogirdi, karlarning Parij Milliy instituti bitiruvchisi kar Klerk (1785—1869), AQShga borib, u yerda Sh.M. Delepe tizimi bo‘yicha karlarni o‘qitishning tajribasini tarqatgan. N.M. Nazarovaning ma’lumotlariga ko‘ra, karlar uchun maktablarga o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash muammosi XVIII asrning ikkinchi yarmida, mакtabda o‘qitish boshlanishi bilan paydo bo‘lgan⁴¹.

Lekin maqsadli ravishda tayyorlash faqat XIX asrdan boshlangan. U asosan surdopedagoglar kurslarida olib borilgan (Germaniya — 1812; Italiya — 1865; Fransiya — Parijdagi Pereyra nomidagi Institut huzurida - 1875; Polsha — 1844; Vengriya — 1890; Rossiya — 1898). Bu muammoni yechish uchun o‘qituvchilarni o‘qitishning maqsadi, vazifalari, mazmunini aniqlash, bunday o‘qitish mazmunini ishlab chiqish zarur edi. Bunday tayyorgarlikning maqsadi xalq maktabi o‘qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish, uni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish – kar-soqovlarni o‘qitish san’atiga o‘qitishdan iborat. Surdopedagogning pedagogik faoliyati o‘ziga xosligi tufayli imo-ishora nutqini o‘rganish zarurati juda erta anglab boshlandi. Masalan, V.F. Gauderingning fikricha, “kar-soqovning ko‘nglini topishga” hamda kar-soqovlar nutqidagi mantiqiy va grammatik xatolarni tushunishga, boshqa vositalar bilan so‘z yoki iborani tushuntirishga imkon bo‘lmaganida yordam beradigan kar-soqovlarning tabiiy imo-ishora nutqini bilishi kerak.⁴².

1912 yida Parijda o‘tkazilgan karlarning Uchinchi xalqaro qurultoyi “... hech kim, maxsus diplomga ega bo‘lmasdan karlar uchun mакtabda o‘qitishi mumkin emas”ligi taklif qildi va “... kar-soqovlarni o‘qitishning eng yaxshi tizimi barcha ular uchun foydali deb topilgan va aralash tizimga kiruvchi usullarning so‘z, yozuv, daktiologiya va belgilar birligi bo‘lishi kerak” deb ta’kidladi⁴³. Yosh kar-soqovlar uchun klassik mimika bo‘yicha har haftada

⁴¹ Назарова Н. М. Развитие теории и практики дефектологического образования. Сурдопедагогика: История, современные проблемы, перспективы профессиональной подготовки. — М., 1992. — 163 с.

⁴² Гаудеринг Ф. В. Практика обучения и воспитания глухонемых, основанная на действительных жизненных потребностях воспитанников / Перевод Е. Г. Ласточкиной под ред Ф. А. Pay // ВП гос. имп. Марии Феодоровны о глухонемых. — 1909—1910. — № 7—9. — С. 200—213.

⁴³ Третий международный съезд глухонемых в Париже 1—2 августа 1912 года: Резолюция первая, части 3, 4 // ВП гос. имп. Марии Феодоровны. — 1913. — № 11—12. — С. 320—325.

o‘tkaziladigan kurslarni ochish to‘g‘risida takliflar berilgan.

“Sof og‘zaki usul”ni hukmronligining butun davrida ishora nutqi surdopedagoglarni o‘qitishning predmeti bo‘lmagan. XX asrning 70-chi yillarida imo-shora nutqiga munosabat o‘zgardi, tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Imo-ishora nutqini jahonning ko‘p universitetlari kurslarida o‘rganib boshlashdi (Galladet, Vashington va boshqalar).

Yetmishinchi yillar oxiri – 80-chi yillar boshida, imo-ishora tilning rasmiy mavqeい oshishi, “bilingistik yondashuv” paydo bo‘lishi munosabati bilan Yevropa va Amerika pedagogik universitetlarining aksariyatida (Stokholm, Xelsinski, Berlin, Bristol, Polsha, London, Gamburg va boshqalar) nazariy masalalar o‘rganilgan. Imo-ishora tilida muloqotning amaliy ko‘nikmalariga o‘qitish tizimi ham qayta qurildi.

Masalan, Gamburg universitetidagi imo-ishora tiliga o‘qitish dasturini ko‘rib chiqamiz. Unda ta’kidlanadiki, imo-ishora tillari uzoq vaqt mobaynida o‘z ifodasini uni to‘laqonli til sifatida inkor etilishda topgan siquvdan keyin, XX asrning 70-chi yillaridan boshlab xalqaro tilshunoslik tadqiqotlarida alohida o‘rinni egallaydi va tabiiy tillar sifatida tan olinmoqda. Karlar imo-ishora nutqi egalari sifatida o‘z tili huquqiga, jumladan uni o‘rganishga da’vo qilishi mumkin⁴⁴.

Ta’kidlanadiki, imo-ishora tilini tadqiq qilish, uni karlar bilan barcha ishlaydiganlar tomonidan o‘rganish nafaqat maqsad, balki ijtimoiy-siyosiy majburiyat deb hisoblanadi. Ishora tili, tilning alohida fazoviy-vizual turi sifatida karlarning reabilitatsiya va ijtimoiylashuvi asoslari va shartlarini, karlar jamiyatlarini til bo‘yicha ozchiliklar sifatida ishlashini ta’minlaydi. Dastur uch bo‘limdan iborat:

- nutqiy amaliyot;
- lingvistika, sotsiologiya;
- karlar mikrosotsiumlari madaniyati.

“Nutqiy amaliyot” bo‘limida nemis imo-ishora nutqi to‘g‘risida amaliy qobiliyat va bilimlarni shakllantirish vazifasi qo‘yiladi. Undan tashqari, ikkinchi imo-ishora nutqi sifatida nemis tilli, qo‘shni mamlakatlar va AQShning bir nechta ishora tillari taklif etiladi.

«Lingvistika» bo‘limida ishora tilida til refleksiysi o‘rganiladi. O‘rganish ham tizimli-lingvistik savollarni (belgilar nazariyasi, leksikologiya,

⁴⁴ Vorläufiger Studienplan für das Fach Gebärdensprachen. Universität Hamburg, 1988. — 11 s.

grammatika, semantika, pragmatika), ham ishora tilni qo'llash sohasini qamrab oladi. Psixolingvistika imo-ishora nutqi paydo bo'lishi va rivojlanishi masalalari va uning kognitiv, ijtimoiy va hissiy imkoniyatlarini oshib beradi.

Karlar bilan ishlaydigan bo'lajak mutaxassislar uchun ularning barcha sohalaridagi faoliyatiga kasbiy-maxsus tayyorlashning uch darajasi taklif etiladi:

1. Imo-ishora nutqi bo'yicha tadqiqotlarini tayyorlash. O'qitish semiotika (belgilar tizim) va lingvistika sohalaridagi akademik faoliyatni nazarda tutuvchi ishora tilidagi amaliy va nazariy kompetensiyani ta'minlashi kerak. Bu ishora tillarda kompetentli mutaxassislarda oshib borayotgan ehtiyojni vujudga keltiruvchi ishora tiliga bo'lgan qiziqishni ortishi bilan bog'liq.

2. Imo-ishora nutqi tarjimonlarini tayyorlash. Germaniya Asosiy qonuni va karlarning o'z ishora tiliga huquqidan kelib chiqib, tarjimonlar karlar va eshitish qobiliyati borlar o'rtasidagi "kommunikativ ko'prik" sifatida ko'rildi.

3. Imo-ishora nutqi sohasidagi kar o'qituvchilar, o'qituvchilar, maktabgacha muassasalar tarbiyalovchilari, ijtimoiy pedagoglar, psixologlar, tibbiy xodimlar, ruhoniylar, huquqshunoslar va boshqalarni tayyorlash. Bu shaxslar uchun ishora tillarni o'rganish bo'yicha chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan o'quv kursi nazarda tutiladi.

Imo-ishora nutqi bo'yicha ko'p pog'onali tayyorlov universitetda tahsil olishning butun davrida olib boriladi. Imo-ishora nutqini bo'sh egallaydigan yoki umuman egallamaganlar uchun dastlabki intensiv kurs taklif etiladi. U har haftada 16 soatni tashkil etadi. Keyin 1-chi semestrdan 4-chi semestrgacha – kirish bosqichi, 5-chi kursdan 8-chi semestrgacha – asosiy bosqich, 9-chi va 10-chi semestrlarda – imtihonli bosqich.

O'qitishning har bir bosqichidan so'ng uni muvaffaqiyatli yakunlanganligi to'g'risida guvohnoma beriladi. Bu hujjat keyingi pog'onadagi mashg'ulotlarga kirishishga huquq beradi. Imo-ishora nutqi asosiy bo'lgan shaxslarda o'quv rejasiga ko'ra ishora tilini o'rganishga har hafta 60 soat ajratiladi, Imo-ishora nutqi ikkinchi til bo'lganlarga – 35 soat. Bu soatlar bir tekisda kirish va bosh fazalarga taqsimlanadi. O'qitish davomiyligi uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin, lekin bir semestrdan ko'pgina emas. Kar bolalar va kattalar uchun muassasalarida amaliyat ham nazarda tutilgan.

O'quv jarayoni ma'ruzalar kursi, amaliy mashg'ulotlar va seminarlardan iborat. Talabalar tadqiq qilish ishi deb hisoblangan kolokviumlar ham o'tkaziladi. Ularda turli ilmiy muammolar tahlil qilinadi yoki aniq tadqiqot masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqiy kolokviumlar imtihon kolokviumlari

deb hisoblanadi.

Dastur ishora tillari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan, va Gamburg universiteti turli sohalarda kasbiy faoliyatga ishlashga mo‘ljallangan mutaxassilarni tayyorlaydi.

Rossiyada surdopedagoglarni tayyorlash 1809 yilda boshlangan. Pavlovsk shahrida kar-soqovlarning tajribaviy o‘quv yurti huzurida bir nechta eshitish qobiliyati bor bolalar, oddiy gimnaziya yuqori sinf o‘quvchilari kar bolalar bilan birga yashashgan va ular bilan muloqot qilish vositasi sifatida imo-ishora nutqini egallahsgan. Gimnaziyani tugatib, ular o‘quv yurtida o‘qituvchi sifatida qolishgan. Keyin bu amaliyot Peterburgdagi kar-soqovlar uchun o‘quv yurti Ustavida muhrlandi. Tayyorlashning bu shakli past samarali bo‘lib chiqdi. Surdopedagogning og‘ir mehnati bu kasbni ongli ravishda tanlashni talab qilardi.

Rossiyada surdopedagoglarni ixtisoslashgan va markazlashtirilgan tarzda tayyorlash XIX asming oxirida boshlandi. Bunday tayyorlashning birinchi shakli Peterburg kar-soqovlar o‘quv yurti huzuridagi imperator Mariya Fyodorovna qaramog‘idagi Pedagogik Kurslar (1898—1915) bo‘ldi⁴⁵. Kurslar direktori F.S. Matveyev ular faoliyati yo‘nalishini quyidagi ta’riflagan: “Kurslarning asosiy vazifasi – kar-soqovlarni o‘rgatishga bag‘ishlagan shaxslarga shunday tayyorgarlik berishki, ular eshitish qobiliyatidan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitishga ongli ravishda munosabatda bo‘lishga, eshitish hamda nutq buzilishlarning turli shakllarini tushunish va tegishli choralarini ko‘rishga qodir bo‘lsin”⁴⁶.

Kurslar dasturlari mazmuni o‘qituvchilarni “sof og‘zaki usul” tizimi bo‘yicha ishlashga tayyorlashni ta’minalashni, o‘qituvchilarning ilmiy, pedagogik va umumiy defektologik darajasini kengaytirishni, o‘qituvchilarni karlar bilan ishslashdagi pedagogik va ijtimoiy funksiyalarni bajarishga tayyorlashni ta’minalashi kerak edi (N.M. Lagovskiy)⁴⁷.

Dasturga kar-soqovlarni tarbiyalash va o‘qitish nazariyasini va tarixi

⁴⁵ Программа Педагогических Курсов Попечительства гос. имп. Марии Феодоровны о глухонемых. — 1907—1908. — № 2. — С. 76—88.

⁴⁶ Матвеев Ф. С. Подготовка учителей и учительниц для обучения глухонемых детей: Доклад на Первом всероссийском съезде по вопросам народного образования 30 декабря 1913 // ВП гос. имп. Марии Феодоровны. — 1914. — № 1—2. — С. 5—11.

⁴⁷ Лаговский Н. М. Обучение и призрение глухонемых в России // ВП. гос. имп. Марии Феодоровны. — 1905—1906. — № 1—12; 1906—1907. — № 1—9.

masalalari, kar-soqov o‘qituvchilarga talablar bo‘limi, hamda barcha o‘quv predmetlar bo‘yicha o‘qitish metodikalari kiritilgan edi. Undan tashqari, surdopedagogikaning asoslari, amaliy fonetika, pedagogik psixologiya, til psixologiyasi, maktabgacha yoshdagi kar-soqov bolalar bilan mashg‘ulotlar metodikasi va logopediya asoslari o‘rganilgan. Tinglovchilarni kar-soqovlar uchun qonunlarning xususiyatlari bilan tanishtirishgan va hokazo.

Ilg‘or rus surdopedagoglar karlarning shaxslararo muloqotning vositasi sifatida ishora nutqni egallash zarurligini tushunishgan. Shuning uchun, o‘quvtarbiyaviy jarayondan ishora nutqni inkor qiluvchi “sof og‘zaki usuli” hukmronligiga qaramasdan,” surdopedagoglarni tayyorlash dasturiga ishora nutqi kursiga kiritilgan edi.

N.D. Yazykov muallifligidagi Mimika bo‘yicha darsturga ko‘ra tinglovchilar “mimikaga taalluqli atamalar”, “o‘qituvchilar va kar-soqovlarning tarbiyalovchilariga mimikaning ahamiyati” hamda “kar-soqovlar maktablari uchun” nazariy ma’lumotlar olishgan, “tabiiy va sun’iy ishoralar”, “daktilologik alifbe”, “raqamlash” o‘rganilgan. Mimika (ishora nutqi) yordamida kar-soqovlar bilan suhbatlarni o‘tkazish, davlat organlarida (sud, notarius va hokazo) kar-soqovlardan ma’lumot olish qobiliyat va ko‘nikmalar, shakllantirilgan⁴⁸. Inqilobdan keyin surdopedagogning kasbiy ta’limi davlat siyosati bilan belgilangan. Masalan, 1920 yildan boshlab, defektologlarni tayyorlash oliy tizimga, 1924-1925 yillardan esa – oliy pedagogik ta’lim tizimiga kiritildi.

“Sof og‘zaki usul”ni bekor qilinishi va Imo-ishora nutqini yordamchi vosita sifatida tan olinishiga qaramasdan, ishora nutqi surdopedagoglarni kasbiy tayyorgarligi elementiga aylanishgacha ko‘p yillar o‘tdi [⁴⁹].

«Daktilologiya. Ishora nutqi» ilk bor fakultativ sifatida 1957 yilda kiritilgan. Qisqa muddat ichida (24 soat) talabalar tomonidan ishora leksik minimumni (200-250 ishora) o‘zlashtirish nazarda tutilgan.

Faqat 1977 yilda A.G. Gerankina tomonidan pedagogika institutlari uchun birinchi “Defektologik mutaxassisliklar uchun mimika va daktilologiya (daktil va ishora nutqi)” nomli dastur ishlab chiqildi. Daktil va ishora nutqi karlar uchun maktablariga pedagoglarni tayyorlash tuzilmasining ahamiyatli

⁴⁸ Программа Педагогических Курсов Попечительства гос. имп. Марии Феодоровны о глухонемых. — 1907—1908. — № 2. — С. 76—88.

⁴⁹ Всероссийское совещание по вопросам обучения и воспитания глухонемых (Москва, 1938): Тез. докл. — М.: Наркомпрос, 1938. — 32 с.

komponentiga aylandi⁵⁰. Hajmi 40 soatli (6 soat ma’ruzalar, 34 soat laboratoriya mashg‘ulotlari) kurs uchinchi kursga o‘rganilgan. Kursning ma’ruzalar qismida Imo-ishora nutqi haqida nazariy ma’lumotlar berilgan, ularni bevosita va teskari tarjimasi xususiyatlari ochib berilgan, o‘qituvchini kar o‘quvchilarning ishora va daktil nutq madaniyatini hamda karlarning umumiyligi madaniyatini oshirishdagi roli ta’kidlangan. Dastur hajmni (1000 nutqiy ishora), metodikani (so‘z nutqini ishora nutqiga va Imo-ishora nutqini so‘z nutqiga tarjima qilish) aniqlagan, unda ishora nutqi texnikasini mustaqil takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Dasturda Imo-ishora nutqini o‘rgatish qurilgan mavzular ro‘yxati keltirilgan. Fikrimizcha, dasturning jiddiy nuqsoni – bu har bir mavzuga leksik material yo‘qligi sanaladi. Dasturga muvofiq 45 daqiqa o‘quv vaqt ichida 30 ta yangi ishorani o‘zlashtirish kerak. Biroq o‘quv qo‘llanma yo‘qligi tufayli talabalar o‘z konspektlariga har bir ishorani yozishga majbur bo‘lardi. Bu jarayon o‘quv vaqtini yetarli darajada sarflanishini talab qiladi. Shuning uchun ishora nutqida muloqot qilish amaliyotiga juda kam vaqt ajratilardi. 1983 yildagi o‘quv rejasida soatlar soni oshirildi va 56 soatni tashkil etdi.

1986 yilda «Daktilologiya. Ishora nutqi» kursining G.L. Zayseva tomonidan ishlab chiqqan yangi kursi paydo bo‘ldi⁵¹. Muallifning ko‘p yillik ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyati unga ma’ruza kursining mazmunini jiddiy kengaytirishga imkon berdi. Kursga imo-ishora nutqi psixologiyasi, lingvistikasi, psixolingvistikasi sohalardagi eng yangi mamlakatdagi va xorijdagi tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi ma’lumotlar kiritildi. Bu esa talabalar Imo-ishora nutqi rivojlanishi va lingvistik tuzilmasining asosiy qonuniyatlarini to‘g‘risida chuqur bilimlar olishini ta’minlaydi. Surdopedagogika tarixidagi ishora nutqiga kurashuvchi, qarma-qarshi qarashlarni tanqidiy ko‘rib chiqish talabalarga inson jamiyati rivojlanishi dinamikasini inobatga olgan holda ishora nutqi muammosiga yaqinroq kelishga imkon beradi. Amaliy maqsad ham belgilangan: bo‘lajak surdopedagoglarda o‘quvchilar bilan daktil va ishora nutqi yordamida muloqot qilish qobiliyatini hamda ishora tarjimasi birlamchi ko‘nikmalarini shakllantirishdeb belgilangan. Afsuski, dasturga leksik material ilova qilinmagan. Bu dastur Toshkent davlat universitetida

⁵⁰ Геранкина А. Г. Мимика и дактилология (дактильная и жестовая речь). Программы педагогических институтов. — М., 1977. — 17 с.

⁵¹ Зайцева Г. Л. Дактилология. Жестовая речь. Программы педагогических институтов. — М., 1986. — 13 с.

surdopedogoglarni tayerlashga ham asos qilingan.

O‘zbekistonda defektolog-mutaxassislar tayyorlash deyarli ellik bir yil avval yo‘lga qo‘yilgan va o‘sha vaqtida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (instituti) O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda anomal bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim dargohi hisoblangan. 1966-yilda Xalq ta’limi vazirligi taklifi bilan Kengash chaqirildi. Ushbu kengashda sobiq O‘zSSR maorif vaziri o‘rinbosari S.A.Panchenko, ilmiy kotib – M.N.Xodjayeva, O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutidan N.R.Raxmanov, 66-yordamchi maktab direktori G.Sh. Aytmetova, 1-sonli maxsus internatdan A.N.Sitkovskaya, D.M.Orenberg, defektologiya sohasi bo‘yicha yetuk Rossiyalik olimlardan professor, fan doktorlari M.I.Zemsova, M.S.Pevzner, V.G.Petrova, fan nomzodi M.I.Kuzmiskayalar ishtirok etdilar. Kengashda asosiy ko‘riladigan masala «O‘zbekistonda defektolog kadrlarni tayyorlash» masalasi edi. Kengashda ushbu masala o‘rganib chiqilib, O‘zbekistonda defektolog kadrlar tayyorlash haqidagi qaror qabul qilindi. Ushbu qarordan so‘ng 1967-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining «Pedagogika va psixologiya» fakultetida Defektologiya bo‘limi ochildi. 1973-yilda pedagogika va psixologiya fakultetining “Defektologiya” bo‘limida “Surdopedagogika” yo‘nalishi ham ochildi, bo‘limga 27 nafar talaba qabul qilindi. Shu vaqt dan e’tiboran, zaif eshituvchi va kar bolalar maktabi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlana boshlandi.

1981 yilda defektologiya alohida fakultet maqomiga erishdi va fakultetda talabalar sonining ortib borishi bilan milliy kadrlarni tayyorlashga ham alohida e’tibor berila boshlandi. Bu masalani hal qilish maqsadida fakultetning professor-o‘qituvchilari Moskva, Kiyev va boshqa shaharlardagi oliy ta’lim muassasalarining Defektologiya fakultetlariga biriktirildi. 1981 yilda Defektologiya kafedrasи ikki mustaqil kafedraga bo‘lindi: “Oligofrenopedagogika va logopediya” hamda “Surdopedagogika va defektologiyaning klinik asoslari” kafedralar tashkil etildi. Ikkala kafedrada o‘n yetta o‘qituvchi ilmiy va pedagogik faoliyat olib bordilar. Jumladan, bitta professor, tibbiyot fanlari doktori: M.G.Mirzakarimova, yetta fan nomzodi, dosentlar: S.Sh.Aytmetova, A.I.Sagatov, I.A.Alimova, R.M.Qoriyeva, S.G.Kim, I.G.Radisheva, E.B.Yem, ikkita katta o‘qituvchi: O.S.Maymor, V.S.Raxmanova, yetta o‘qituvchi: K.Mamedov, X.Po‘latova, N.Mazalova, M.Mirzaxmedova, O.Rogacheva, I.Kislitsina, N.Sosedova shular jumlasidandir.

1999 o‘quv yilidan boshlab Defektologiya fakulteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti bilan birlashtirildi hamda surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan 2007 yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilinishi hamda shu asosida qabul qilingan “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturida defektolog kadrlarni tayyorlash masalasiga katta e’tibor berildi. Ushbu dasturda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida Defektologiya fakulteti Boshlang‘ich ta’lim fakultetidan ajralib chiqdi va fakulteti qoshida “Korreksion pedagogika” va “Maxsus ta’lim metodikalari” kafedralari tashkil etildi. 2016-yilda Defektologiya fakulteti Pedagogika va psixologiya fakulteti bilan birlashtirildi. Ushbu fakultetda Defektologiya, Maktabgacha ta’lim va Psixologiya, Psixologiya faoliyat turi yo‘nalishlari faoliyat olib borildi. 2017 yilda Defektologiya yo‘nalishi bo‘yicha Sirtqi va Maxsus sirtqi bo‘limlari tashkil qilindi.

2018 yilda Defektologiya mustaqil fakultet maqomiga ega bo‘lib, Maxsus pedagogika nomi berildi va fakultet qoshida uchta: Logopediya, Oligofrenopedagogika va Surdopedagogika kafedralari tashkil qilindi. Hozirgi kunda fakultetda kunduzgi va kechki bakalavr, maxsus sirtqi va sirtqi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu yildan boshlab bakalavr ta’lim yo‘nalishiga oligofrenopedagogika, logopediya, surdopedagogika yo‘nalishlariga talabalar qabul qilindi. Magistratura bo‘limida ham oligofrenopedagogika, logopediya, surdopedagogika mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlana boshladi. 2020 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida jiddiy o‘zgartishlar ro‘y berdi. «Surdopedagogika» mutaxassisligi bo‘yicha «Daktilologiya. Ishora nutqi» kursiga ajratilgan soatlar soni 56 soatdan 242 soatgacha oshdi. Universitetda surdopedagogo va surdotarjimon tayyorgarligiga o‘tish munosabati bilan yangi o‘quv rejada kurs ikki mustaqil kursga bo‘lingan: «Daktilologiya» (18 soat laboratoriya mashg‘ulotlariga, birinchi kurs, umumiy defektologik tayyorgarlik) va “Imo-ishora nutqi” (bazaviy kurs – 24 soat laboratoriya mashg‘ulotlari, 6 soat ma’ruzalar, ikkinchi kurs, umumiy defektologik tayyorgarlik); asosiy kurs – 78 soat laboratoriya mashg‘ulotlari va 16 soat ma’ruzalar (uchinchi kurs, surdistlar); asosiy kursni davomi – 70 soat amaliy mashg‘ulotlari va 20 soat ma’ruzalar (to‘rtinchi kurs, surdistlar); 28 soat (beshinchi kurs), 10 soat ma’ruzalar, 18 soat amaliy mashg‘ulotlari. O‘qitish davrida talabalar bitta oraliq

va yakuniy imtihon topshiradi. Undan tashqari, mакtabda ishora nuqtasi bo'yicha uch haftalik pedagogik amaliyat o'tiladi.

**II BOB Bo‘lajak surdopedagoglarning imo-ishora
nuqtisi vositasidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish**

2.1-§. Bo‘lajak surdopedagoglarning imo-ishora

**nuqtisi vositasidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ning
metodik imkoniyatlari**

Oliy o‘quv yurtlari mutaxassislarini tayyorlash tizimining sifat jihatidan o‘zgartirishga hissa qo‘sadigan pedagogik tadbirlar majmuasini aniqlash ta’limning tashkiliy va mazmunli tarkibiy qismini o‘zgartirish, ta’limni boshqa komponentlari bilan aloqalarni o‘rnatish va yangi tarkibiy qismlarni shakllantirishni talab qiladi.

Nizomiy nomidagi TDPUDA 5111900 – Defektologiya (Surdopedagogika) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Surdopedagogika kafedrasida ta’lim-kasbiy dasturlar asosida bakalavrlar tayyorlanadi. Kasbiy tayyorgarlikning birinchi bosqichida (ta’limning 1-2 yili) umumiy yuqori pedagogik ta’lim, ikkinchi bosqichida (ta’limning 2-3 yili) umumiy maxsus pedagogik ta’lim amalga oshiriladi, uchinchi bosqich (ta’limning 3-4 yili) talabalarda maxsus kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, imo-ishora nutqini egallaganlik darajasi yuzasidan bitiruvchilar yetarli ma’lumotga ega emas. Buning sababini ta’limiy-kasbiy o‘quv rejalarida imo-ishora nutqiga o‘rgatish bo‘yicha bitta fan bilan cheklanganlik va imo-ishora nutqiga o‘rgatish uslubiyati o‘quv faniga ajratilgan soatlarni kam hajmligi bilan bilan ifodalanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida imo-ishora nutqiga o‘rgatishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga imkon beradigan bilimlarning tarkibiy-mazmunli tizimiga alohida e’tibor qaratdir. Imo-ishora nutqi vositasida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish- surdopedagog-mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun 5111900-Defektologiya (surdopedagogika) bakalavriat ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak surdopedagoglarda imo-ishora nutqini rivojlantirish maqsadida “Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish” nomli fan o‘qitiladi. Fanni o‘qitishdan maqsad – daktilologiya va imo-ishora nutqini o‘ziga xosligi haqida talabalarda aniq tasavvur hosil qilish va bu nutq shaklidan amaliyotda foydalnishga o‘rgatishidir. Fanning vazifasi – talabalarni daktilologiya va imo-ishora nutqni mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, daktilologiya va imo-ishora nutqi kursini o‘rganish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarda talabalarda bo‘lg‘usi faoliyati uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish,

daktilologiya va imo-ishoradan foydalanishga o‘rgatish, daktilologiya va imo-ishora nutqi orqali tarjima qilishga o‘rgatishdan iborat.Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba daktilologiyaning mazmuni va uni egallash usullari, imo-ishora nutq mazmuni, kar bolalarning imo-ishorali tilining rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar; eshitishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda daktıl nutqning o‘rni va ahamiyati; imo-ishora tilining taraqqiyoti; eshitishida nuqsoni bo‘lgan va eshituvchilar tomonidan og‘zaki nutqni imo-ishorali nutqqa, va aksincha imo-ishorali nutqni og‘zaki nutqqa tarjima qilinishi; metodikalarini bilishi kerak; imo-ishora nutqini egallash usullari, daktıl nutqidan so‘zlashuv vositasi sifatida foydalanish, imo-ishora nutqidan so‘zlashuv vositasida tarjima qilish; korreksion-pedagogik ish jarayonini tahlil qilish va baholashni ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga daktıl va imo-ishorali nutqni o‘rgatish, mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakalariga ega bo‘lishi kerak.Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish fani ta’lim yo‘nalishi 5,6,-semestrlarida o‘qitiladi. Uning o‘quv hajmi quyidagicha:

2.1-jadval.

«Imo-ishora va daktiloligiya» fani fani soatlari hajmi

| № | Mashg‘ulot turi | Ajratilgan soat | Semestr | |
|---------------------------|------------------------|------------------------|----------------|------------|
| | | | VI | V |
| 1. | Nazariy (ma’ruza) | 76 | 50 | 26 |
| 2. | Amaliy mashg‘ulot | 120 | 70 | 50 |
| 4. | Mustaqil ta’lim | 160 | 100 | 60 |
| 5. | Kurs ishi | - | - | |
| Jami auditoriya soati | | 102 | 26 | |
| Umumiy o‘quv soati | | 356 | 220 | 136 |

Nazariy, amaliy mashg‘ulotlar mazmuni 2.2-jadvalda keltirilgan. Fanda belgilangan mavzular imo-ishora nutqiga o‘rgatish jarayonini bugungi kunda eng dolzarb bo‘lgan yo‘llar bilan turli dasturiy vositalarni qo‘llash orqali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu dissertatsiya ishi ham aynan shu maqsadlarni

ko‘zlagan holda imo-ishora nutqiga o‘rgatish va undan samarali foydalanishga o‘rgatish muammolariga bag‘ishlangan. Shu maqsadda daktilogiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish fanini o‘itish mazmuni yanada innovatsion usullar bilan boyitildi.

2. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Daktilogiyaning mazmuni, maqsadi va egallash metodlari

Karlar, zaif eshituvchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida daktilogiyaning qo‘llanilishidagi tarixiy manbalar.

2-mavzu. Daktilogiya – barmoq alifbosi

Daktilogiya – qo‘l alifbosi. Daktilogiya turlari: bir qo‘lli, ikki qo‘lli, kaft daktilogiyasi. Bir qo‘lli daktilogiyaning afzalliklari. Dunyo mamlakatlarining daktil alifbosi. Daktil nutqning mohiyati va uning og‘zaki so‘zlashuv, og‘zaki va yozma nutqqa nisbatan o‘ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu. Daktil belgilarning ta`rifi

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga daktil nutqni o‘rganishga qo‘yilgan talablar bo‘yicha bilimlarlarni shakllantirish.

4-mavzu. Kar va zaif bolalarni daktil nutkini egalashning psixologik xususiyatlari

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarida daktil nutqni qo‘llashga qoyilgan asosiy talablar. Og‘zaki so‘zlashuv nutqini imo-ishora nutqga tarjima qilishda daktil nutqining tutgan o‘rni. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida daktil nutqini o‘rgatishda bolalarning psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

5-mavzu. Og‘zaki so‘zlashuv nutqni tarjima qilishda daktil nutkning tutgan o‘rni.

Karlarning imo-ishora nutqi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda

tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo‘llar harakati), mimika (yuz ifodasi), artikulyatsiya, daktiologiya, pantomima.

6-mavzu. Imo-ishora nutqning karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni

Karlarni o‘qitishning turli bosqichlarida imo-ishorali nutqning tutgan o‘rni. Imo-ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta`lim-tarbiyasi jarayonida qo‘llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida tutgan o‘rni va ahamiyati, ularning so‘zleri nutqni, imo-ishorali nutqni uning texnikasi. Talabalarga imo-ishora nutqi, imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni haqida bilim va malakalar berish

7-mavzu. Imo-ishora tilning taraqqiyoti, lug‘ati.

Karlarning imo-ishora nutqi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqning o‘ziga xosligi. Talabalarda imo-ishora tilining taraqqiyoti haqidagi bilimlarni tarkib toptirish. Yangi so‘zlar, tushunchalar, abstrakt tushunchalar, atoqli otlar, atamalar, grammatic kategoriylar uchun yangi ishoralarning shakllanishi. Yangi ishoralarning imo-ishoralar tili tizimidagi o‘rni. Imo-ishoralarning lug‘ati. Xalqaro imo-ishorali lug‘at. Karlarni o‘qitishning turli bosqichlarida imo-ishorali nutqning tutgan o‘rni. Imo-ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta`lim-tarbiyasi jarayonida qo‘llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida tutgan o‘rni va ahamiyati, ularning so‘zleri nutqni, imo-ishorali nutqni uning texnikasi.

8-mavzu. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda imo-ishora nutqni o‘rganishga qo‘yilgan talablar

Imo-ishora belgilarning ta`rifi. Imo-ishora qoidalari. Kar va zaif eshituvchi bolalarni Imo-ishora nutqni egallashining psixologik xususiyatlari. Imo-ishora nutqning kar bolalar bilan olib boriladigan o‘quv tarbiya ishlarida yordamchi vosita sifatida tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqni o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilishi.

9-mavzu. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda imo-ishora nutqning o‘rni va ahamiyati

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quvtarbiyaviy ishlarida Imo-ishora nutqni qo‘llashga qo‘yilgan asosiy talablar. Og‘zaki so‘zlashuv nutqini imo-ishora nutqga tarjima qilishda daktıl nutqining tutgan o‘rni.

10- mavzu. Imo-ishora nutqning mazmuni, maqsad va egallah metodlari

Karlarning imo-ishora nutqi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktıl) formasidan farqi. Imo-ishora nutqining karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Imo-ishora nutqning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo‘llar harakati), mimika (yuz ifodasi), artikulyatsiya, daktilologiya, pantomima. Imo-ishora nutqning o‘ziga xosligi. Imo-ishoraning o‘ziga xos xususiyatlari: imo-ishoraning obrazliligi, uning predmet bilan, harakat bilan, predmetning belgisi bilan, vaziyat, ahamiyat bilan aloqasi, imo-ishora nutqning polisemantizmi. Imo-ishoralarining kelib chiqishi. Imo-ishoraning tasnifi. Imo-ishorali nutqning madaniyati. Imo-ishorali va og‘zaki nutqning o‘zaro aloqadorligi. Imo-ishorali nutq eshitishi nuqsonli bolalarni o‘qitishda qo‘llaniladigan maxsus yordamchi vosita.

11-mavzu. Talaffuzni shakllantirishning mazmuni, maqsadi va egallah metodlari

Talaffuzni shakllantirishning asosiy maqsadi va vazifasi tinglovchilarga bolalar nutqidagi kamchiliklar tipologiyasi to‘g‘risida aniq, ravshan tasavvur berish hamda nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodikasi va maxsus muassasalarda korreksion ishlarni tashkil etish va o‘tkazish boyicha etarlicha metodik yo‘llanmalar berish, kar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda talaffuz malakalarini shakllantirish hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlarini o‘rgatishdan iborat.

12-mavzu. Kar va zaif eshituvchilarga talaffuzni o‘rganishga qo‘yilgan talablar

Bu kursni o‘rganish natijasida tinglovchilar quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallahslari lozim:

1. Kar bolalar nutqining talaffuz tomonini tekshirish;
2. Kar bolalarda talaffuz kamchiliklarini aniqlay olish;

3. Talaffuzga o'rgatish boyicha olib boriladigan ishlarni rejalashtirish va ish turlarini tashkil etish;
4. Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatish metodlari;
5. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlari;
6. O'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish.

13-mavzu. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o'qitishdagi turli bosqichlarda talaffuzning o'rni va axamiyati

Ushbu kursni o'qishda umumiy pedagogika, psixologiya, maxsus metodika fanlaridan olingan bilimlarga asoslaniladi.

Talaffuz malakalarini shakllantirish metodikasi bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish; texnik vositalardan foydalanish; og'zaki nutqqa o'rgatish metodlari va bosqichlari; og'zaki nutqqa o'rgatishda amalga oshiriladigan ish turlari kabi masalalarini aks ettiradi.

Talaffuzni shakllantirish metodikasi kursida, plakatlardan, tarqatma materiallardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

14-mavzu. Talaffuzning mazmuni, maqsad va egallash metodlari

Karlarning talaffuzi va uning og'zaki so'zlashuv (og'zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Talaffuzning karlarni o'qitishda tutgan o'rni. Talaffuzning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo'llar harakati), artikulyatsiya, daktilologiya, pantomima. Talaffuzning o'ziga xosligi.

15-mavzu. Talaffuzning taraqqiyoti

Talaffuzning o'ziga xos xususiyatlari: talaffuzning obrazliligi, uning predmet bilan, harakat bilan, predmetning belgisi bilan, vaziyat, ahamiyat bilan aloqasi. Talaffuzning kelib chiqishi. Talaffuzning tasnifi. Talaffuz madaniyati. Talaffuz va og'zaki nutqning o'zaro aloqadorligi. Talaffuzni o'qitishda qo'llaniladigan nutqiy material eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus yordamchi vositasidir.

16- mavzu. Talaffuz ustida ish olib borishning tizimi

Talaffuz ustida ish olib borishning bosqichlari. Yillar davomida nutqiy materialarni murakkablashtirib borilishi. Karlar maktabida talaffuz ustida ish

olib borilishi.

Talaffuzni shakllantirish metodikasi kursida, plakatlardan, tarqatma materiallardan va boshqa ko‘rgazmali qurollardan foydalilaniladi.

17- mavzu. Umum - ta’lim darslarida talaffuzni shakllantirish mazmuni va metodikasi

Karlar maktabida umum-ta’lim darslarida talaffuzni shakillantirishning mazmuni va masalalari. Umum-ta’lim darslarida talaffuzni shakillantirishda nutqiy materialning roli. Talaffuz va og‘zaki nutqning o‘zaro aloqadorligi.

18-mavzu. Eshitish idrokini rivojlantirishning mazmuni, maqsadi va egallah metodlari

Eshitish idrokini rivojlantirishning asosiy maqsadi va vazifasi tinglovchilarga bolalar nutqidagi kamchiliklar tipologiyasi to‘g‘risida aniq, ravshan tasavvur berish hamda nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodikasi va maxsus muassasalarda korreksion ishlarni tashkil etish va o‘tkazish boyicha yetarlicha metodik yo‘llanmalar berish, kar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlarini o‘rgatishdan iborat.

19-mavzu. Eshitish idrokini rivojlantirishga qo‘yilgan talablar

Bu kursni o‘rganish natijasida tinglovchilar quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallahslari lozim:

- Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlari;
- Eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarni rejalashtirish va ish turlarini tashkil etish;
- Kar bolalar eshitish qobiliyatini tekshirish;
- O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish.

20 -mavzu. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o‘rni va axamiyati

Ushbu kursni o‘qishda umumiy pedagogika, psixologiya, maxsus metodika fanlaridan olingan bilimlarga asoslaniladi.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi bolalarni og‘zaki nutqqa

o‘rgatish; texnik vositalardan foydalanish; og‘zaki nutqqa o‘rgatish metodlari va bosqichlari; og‘zaki nutqqa o‘rgatishda amalga oshiriladigan ish turlari kabi masalalarini aks ettiradi.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi kursida, plakatlardan, tarqatma materiallardan va boshqa ko‘rgazmali quollardan foydalaniladi.

21-mavzu. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning mazmuni, maqsad va egallah metodlari

Karlarning eshitish qobiliyati, talaffuzi va uning og‘zaki so‘zlashuv (og‘zaki, yozma, daktil) formasidan farqi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning karlarni o‘qitishda tutgan o‘rni. Talaffuzning tarkibiy qismlari: nutqni ifodalovchi harakat (qo‘llar harakati), artikulyatsiya, daktilologiya, pantomima. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o‘ziga xosligi.

22-mavzu. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning taraqqiyoti

Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari: uning predmet bilan, harakat bilan, predmetning belgisi bilan, vaziyat, ahamiyat bilan aloqasi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning kelib chiqishi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning tasnifi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning va og‘zaki nutqning o‘zaro aloqadorligi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning o‘qitishda qo‘llaniladigan eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni maxsus yordamchi vositasidir.

23- mavzu. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ish olib borishning tizimi

Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borishning bosqichlari. Yillar davomida nutqiy materiallarni murakkablashtirib borilishi. Karlar maktabida talaffuz ustida ish olib borilishi.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi kursida, plakatlardan, tarqatma materiallardan va boshqa ko‘rgazmali quollardan foydalaniladi.

24- mavzu. Umum - ta’lim darslarida eshitish qobiliyatini rivojlantirishning mazmuni va metodikasi

Karlar mактабида умум-та’лим дарсларидаги Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning mazmuni va masalalari. Umum-та’лим дарсларидаги talaffuzni shakillantirishda nutqiy materialning roli. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va og‘zaki nutqning o‘zaro aloqadorligi.III. Amaliy mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg‘ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta’lim) o‘quv rejada ko‘rsatilgan turi (nomi) bo‘yicha yoziladi)

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Daktil alfaviti. Daktillash tempi ustida ishslash.
2. So‘zlarni daktillashni mashq qilish.
3. Gaplarni daktillashni mashq qilish.
4. Matnlarni daktillashni mashq qilish. (“Shaxar”, “Yil fasllari”, “Transport”)
5. Matnlarni daktillashni mashq qilish. (“O‘quv qurollari”, “Mevalar”, “Sabzavotlar”)
6. Daktilayotgan qo‘ldan o‘qishini mashq qilish.
7. Daktilli diktant.
8. Diktant taxlili.
9. Suhbat, savollar tarjimasi.
10. So‘zlashuvlar tarjimasi.
11. O‘tilgan mavzular bo‘yicha moslashtirilgan matnlarni tarjima qilish.
12. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarni og‘zaki nutqga o‘rgatish
13. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalarni og‘zaki nutqga o‘rgatish
14. Kar o‘quvchilarining eshituv idrokini rivojlantirish ishlarini rejalashtirish
15. Zaif eshituvchi o‘quvchilarining eshituv idrokini rivojlantirish

| | |
|--|---|
| | ishlarini rejorashtirish |
| | 16. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida nutqiy materialni qabul qilishni rivojlantirish ishlarining o‘ziga xosligi |
| | 17. Zaif eshituvchilar mакtablarida eshituv xonalari va ularning vazifalari |
| | 18. Karlar mакtablarida eshituv xonalari va ularning vazifalari |
| | 19. Karlar mакtablarida talaffuzni shakllantirish ishlarini rejorashtirish |
| | 20. Zaif eshituvchilar mакtablarida talaffuzni shakllantirish ishlarini rejorashtirish |
| | 21. Karlar mакtabida darslarga qatnashish |
| | 22. Zaif eshituvchi mакtabiga darslarda qatnashish (1-bo‘lim) |
| | 23. Zaif eshituvchi mакtabiga darslarda qatnashish (2-bo‘lim) |
| | 24. Kar bolalar maktabgacha muassasalarda frontal mashg‘ulatlarda qatnashish |
| | 25. Kar bolalar maktabgacha muassasalarda individual mashg‘ulatlarda qatnashish |
| | 26. Karlarni talaffuzga o‘rgatishning umumiylashtirish asoslari |
| | 27. Karlarni og‘zaki nutqiga tavsifnomasi |
| | 28. Talaffuz ustida ishlashni tashkil etish |
| | 29. Kar bolalar mакtablarida yakka mashg‘ulatlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar va ulaning didaktik imkoniyatlari |
| | 30. Kar bolalar mакtablarida yakka mashg‘ulatlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar foydalanish tamoyillari va yo‘llari |
| | 31. Zaif eshituvchi bolalar mакtablarida yakka mashg‘ulatlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar va ulaning didaktik imkoniyatlari |
| | 32. Zaif eshituvchi bolalar mакtablarida yakka mashg‘ulatlarda qo‘llaniluvchi interfaol usullar foydalanish tamoyillari va yo‘llari |

33. Karlar mакtabida talaffuz ustida ish olib borilishi.
34. Umum - ta'lim darslarida talaffuzni shakllantirishning ustida ish olib borilishi.
35. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borilishi.
36. Umum - ta'lim darslarida Eshitish qobiliyatini rivojlantirishning ustida ish olib borilishi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlар

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Imo-ishora tilining taraqqiyoti .
2. Yangi so'zlar, tushunchalar, abstrakt tushunchalar, atoqli otlar, atamalar grammatik toifalar uchun yangi ishoralarning shakllanishi.
3. Yangi ishoralarning imo-ishoralar tili tizimidagi o'rni.
4. Imo- ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta`lim-tarbiyasi jarayonida qo'llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati.
5. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida imo-ishora nutqini, uning texnikasi, yuzdan o'qiy olish imkoniyatini tutgan o'rni.
6. Daktil va imo-ishora nutqini o'quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlardan qo'llanilishi.
7. Daktil ishorali nutqning tarjimasi tahlili.
8. Tarjima jarayoniga ta`sir ko'rsatuvchi omillar.
9. Karlar mакtabida eshituv xonaning jihozlanishi, uning vazifasi.
10. Talaffuz malakalarini nutqiy eshituv qobiliyatiga ta'siri.

| | |
|--|--|
| | <ol style="list-style-type: none"> 11. Eshitish qobiliyatini audiometr yordamida tekshirish. 12. Nutq audiometriyasi. 13. Eshitish xonasida frontal darslar. 14. Kar bolalar maktabida gaplarni farqlash bo‘yicha olib boriladigan ishlar. 15. Eshtuv idrokini rivojlantirish ishining tizimi. 16. Talaffuzga o‘rgatish davrlari. 17. Karlarda nutqiy nafas, ovoz va tovush qo‘yish usullari. 18. Karlarni talaffuzga o‘rgatish metodlari. 19. Nutqning ko‘rvu idrokini rivojlantirish (labdan o‘qish). 20. ENB bolalarni o‘qitishda nutqdan foydalanish. 21. Eshitish xonada frontal mashg‘ulotlar. 22. Karlar mакtabida individual mashg‘ulotlar. 23. Og‘zaki nutq va uning rivojlanish xususiyatlari.. |
|--|--|

So‘nggi paytlarda maxsus ta’lim tizimining zamonaviylashuvi sababli kun sayin imo-ishora nutqiga o‘rgatishga muljallangan masofaviy kurslar, unda bilimni nazorat qilish, anketa so‘rolari o‘tkazishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Qolaversa, jaxon miqyosida imo-ishora nutqiga bo‘lgan talab o‘z navbatida bo‘lajak surdopedagdan imo-ishora nutqini yaxshi bilishini va ulardan samarali foydalana olishlarini talab qiladi. Shu maqsadda o‘quv rejaga fani mazmuniga «Imo-ishora nutqi segmentatsiyasi», «Surdotarjimon praktikumi» yangi fanlari kiritildi.

Endi ular bilan bat afsil tanishib chiqamiz:

Shu boyitilgan mazmun asosida fanning namunaviy fan dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 29.08.2020 yildagi 3-sonli buyruq bilan ma’qullangan).

« Daktiologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish » fanini o‘qitishni takomillashtirish maqsadida quyidagi **tavsiyalarni** ishlab chiqdik:

- 1) « Daktiologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish »fanini o‘qitishni takomillashtirilgan mazmun asosidagi o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga keng joriy qilish;
- 2) « Daktiologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish »fanini o‘qitish jarayonida talabalarda ular tomonidan yaratiladigan imo-ishora nutqi vositasidvgi tarjima mahsuliga ijodiy munosabatini shakllantirish;
- 3) «Daktiologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish»fani bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlashda « Daktiologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish »fanini asosiy fanlaridan ekanligiga ishontira va qiziqtira olish;
- 4) talabalar fanni o‘rganishga kirishishni boshlab, diqqat bilan « Daktiologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish »fanini mavzularini o‘rganish, professor-o‘qituvchilari bilan maslahatlashish, bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo‘yicha bosqichma-bosqich yaratishni boshlash.

Bo‘lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o‘rgatish didaktik tuzilmasini tatbiq etishni to‘rtta bosqichda amalga oshirishni rejalashtirdik. Birinchi bosqich - Bo‘lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o‘rgatish tizimini tatbiq etishda bo‘lajak surdopedagoglarda ijodiy pedagogik vazifalarni aniqlash, tahlil qilish va yechimini topish qobiliyatini shakllantirish; ikkinchi bosqich - ilmiy bilish, pedagogik tadqiqot bosqichida bo‘lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o‘rgatish tizimini tatbiq etish metodologik asoslarini egallah, bo‘lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o‘rgatish tizimini shart-sharoitlari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishtirish; uchinchi bosqich - bo‘lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o‘rgatish tizimini tatbiq etish texnologiyasini o‘zlashtirish bosqichida bo‘lajak surdopedagoglarni mualliflik dasturlarini yaratishda ishtiroy etishni tashkil etish; to‘rtinchi bosqich - Bo‘lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o‘rgatish tizimini amaliyotga joriy etish bosqichida maxsus maktablarda bo‘lajak surdopedagoglarni amaliy ishini tashkil etish, tuzatish ishlarini olib borish hamda tajriba natijalarini kuzatishni o‘z ichiga oldi.

Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligining zarur darajasiga universitetdagi maxsus tashkil etilgan o‘quv jarayoni orqali va bu muammoning

o‘qituvchilar va talabalar uchun dolzarbligi va ahamiyatini hisobga olgan holda erishish mumkin. Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talaba o‘quv jarayonida faol, ijodiy, rivojlanayotgan sub’ektga aylanishi, o‘quv jarayonidagi ishtirokchilar boshqalarning rivojlanishi sharti va vositasi bo‘lgan o‘zaro munosabatlar zarurligi ta’kidlangan.

Tadqiqot maqsadlariga muvofiq, biz bo‘lajak surdopedagoglar imo-ishora nutqiga o‘rgatish yo‘nalishlarini ishlab chiqdik: 2020-2021 o‘quv yili 5111900 – Defektologiya (Surdopedagogika) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejaga umumkasbiy o‘quv fanlari doirasida mazmunan takomillashtirilgan yangi fan “Imo-ishora nutqi segmentatsiyasi” (30 soat ma’ruza, 90 soat amaliy, 120 soat mustaqil mashg‘ulot) va “Surdotarjimonlik praktikumi” (148 soat amaliy, 148 soat mustaqil mashg‘ulot) ixtisoslashtirilgan o‘quv fanlari kiritildi, mazkur fanlar doirasida o‘quv dasturlar ishlab chiqildi.

Jumladan, 2020-2021 o‘quv yili 5111900 – Defektologiya (Surdopedagogika) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida “Daktilologiya va imo-ishora nutqi” ixtisoslashtirilgan o‘quv fanini o‘qitish miqdorida ma’ruza 48 soatdan 90 soatgacha, amaliy mashg‘ulot 46 soatdan 60 soatgacha, mustaqil mashg‘ulot 86 soatdan 90 soat soatgacha oshirildi. Mazkur dasturga kiritilishi talabalarning uchinchi ta’lim yilida “Surdotarjimonlik praktikumi” fanlarini o‘rganishda imkoniyat yaratdi. Daktilologiya va imo-ishora nutqini chuqur egallahda talabalarning “Surdotarjimonlik praktikumi” o‘quv fanining surdotarjimonlik bo‘yicha bilimlarni birlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradigan faoliyatli yondashuvini amalga oshirish hisoblanadi. “Surdotarjimonlik praktikumi” faniini o‘rganishda biz o‘qitishning an’anaviy usullari, shuningdek, maxsus usullar(talabalarning shaxsiga yo‘naltirilgan vaziyatni yaratish va reja asosida ularning mustaqil ongli ishlashini tashkil etish, badiiy o‘qish darslarini o‘tkazish, harakatlar strategiyasini mustaqil aniqlashga tayyorgarlik, boshqa sohalardagi bilimlar bilan sintez qobiliyatini shakllantirish)dan foydalandik. Biz butun o‘quv jarayonini shunday tashkil qildikki, talabalar o‘z amaliy faoliyatidan olingan tajribalariga asoslanib, mustaqil ravishda javoblarni izlashdi, munozaralarda qatnashishdi. Shu sababli ham innovatsion muhitda bo‘lajak surdopedagoglar o‘rtasida imo-ishora nutqi kommunikativ ko‘nikmalarining shakllanishiga katta hissa qo‘sadigan samarali shakllar, usullar va didaktik sharoitlarni aniqlash va ularni eksperimental tekshirish masalasiga ko‘p jihatdan

Darslarda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning o‘zi zaruriy ijodiy jarayonga aylandi. Ularni innovatsion muhit ham deb atash mumkin bo‘lib, ular o‘quv jarayonini nostandard shaklda tashkil qilish, g‘oyasi, tashkil qilinishi, o‘tkazish metodikasi bo‘yicha ham noan’anaviy bo‘lib, har doimgi qat’iy tuzilmasi va o‘rnatilgan ish rejimiga nisbatan talabalarga ko‘proq yoqadi. Bu kabi darslarni o‘tishda nostandard darslarni ishning asosiy planiga chiqarish katta vaqtini yo‘qotish, yuqori bo‘lmagan samaradorlikka olib keladi. Shu sababli o‘z o‘rnida va darsning ma’lum vaqt davrida qo‘llash talab qilinadi. «Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish» fani bo‘yicha ko‘p miqdordagi nostandard mashg‘ulotlarni o‘tkazilgan va amaliyatga tavsiya etilgan. Ularni qo‘llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- predmet bo‘yicha bilishga oid qiziqishlarning shakllanishiga,
- darsda talabalar faoliyatini faollashtirish,
- talabalar tomonidan o‘quv materialining yaxshi o‘zlashtirilishi,
- har bir talabaning individual qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minalash.

Har qanday fanni o‘qitishda turli texnologiyalarni qo‘llash mazkur fanning mazmuni va xususiyatlari bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, «Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish» fani o‘qitishda ham fanning o‘ziga xos mazmuni va xususiyatlarini hisobga olish talab qilinadi. «Har qanday faoliyat texnologiya yoki san’at bo‘lishi mumkin. San’at sezgiga, texnologiya esa bilishga asoslangan. Hammasi san’atdan boshlanadi, texnologiya bilan tugaydi, shunda hammasi yana boshidan boshlanadi» -deydi V.Bespalko.

Innovatsion pedagogik texnologiya bu — maqsadga yo‘naltirilgan, amaliyatga muntazam va izchil joriy qilinadigan original, novatorlik usullari, pedagogik harakat va vositalarni qabul qilish (priyem), uning maqsadi aniqlangandan toki kutilayotgan natijagacha bo‘lgan o‘quv-tarbiya jarayonini yaxlit qamrab olish tushuniladi. Zamonaviy ta’limga innovatsiyani joriy qilish zarurdir, fanga uni asoslovchi turli xil yondashuvlar mavjud[118].

Jumladan, «Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish» fani o‘qitishda quyidagi texnologiyalar faol qo‘llaniladi:

| | |
|--|--|
| Гурӯҳли (жамоавий) технологиялар | <ul style="list-style-type: none"> • гурӯҳдаги ўқувчилар ўртасида мулоқот жараёнини ташкил қилиш орқали амалга ошиди |
| Ўқув жараёнини индивидуаллаштириш технологиялари | <ul style="list-style-type: none"> • педагогик восита ва ўқув жараёни темпи ҳамда таълим олувчиларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб ўқув жараёни ташкил қилинади |
| Ўқитишнинг ўйинли технологиялари | <ul style="list-style-type: none"> • Ўқитишнинг бир қанча хусусиятли турларига эга бўлган технология |
| Интерфаол ўқитиш технологиялари | <ul style="list-style-type: none"> • барча таълим олувчиларнинг ўзаро ҳамкорликда доимий фаол бўлиш шароитидаги маҳсус шакл |
| Мультимедиа технологиялари | <ul style="list-style-type: none"> • Мультимедиа маҳсулотларини яратиш билан боғлиқ технологиялардир |
| Тармоқ технологиялари | <ul style="list-style-type: none"> • интернет тармоғи орқали мулоқот, асосан, маълумотлар базасига боғланиш учун мўлжалланган |
| Компьютерли моделлаштириш технологиялари | <ul style="list-style-type: none"> • Объект, воея ва ходисаларни моделлаштириш орқали ўқув самарадорлигига эришилади |

2.2-rasm. «Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o'rgatish» fanini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy texnologiyalar

Guruhli (jamoaviy) texnologiyalar - o'qitishning bu texnologiyasi guruhdagi talabalar o'rtaсидаги imo-ishora nutqi vositasidagi muloqot jarayoni tashkil qilish orqali amalga oshadi. Guruh ikkita yoki undan ortiq talabadan tarkib topishi, bir jinsli yoki har xil jinsli, doimiy va mobil bo'lishi mumkin.

O'quv jarayonini individuallashtirish texnologiyalar. Pedagogik vosita va o'quv jarayoni tempi ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan, rivojlanish darajalaridan va shakllangan tajribadan kelib chiqib rejalashtiriladi.

O'qitishning o'yinli texnologiyalar. O'qitishning o'yinli texnologiyalarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- o'rgatuvchi, shug'ullantiruvchi, umumlashtiruvchi;
- bilishga oid, tarbiyaga oid, rivojlantiruvchi;
- reproduktiv, produktiv, ijodiy.

Interaktiv texnologiyalar. Unda barcha zarur material qamrab olinishi va chuqur o'rganilishi uchun dars ssenariysi, qatnashchilar roli, baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Elektron ta'lim resurslarining qo'llanilishi misolida u keng masshtabga ega. Ular sirasiga dasturiy ta'minot sifatida tayyor mahsulotlar qo'llanilib, ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan yoki

informatika darslarida o‘z fragmentlari bilan tayyorlangan dasturlarni kiritish mumkin. To‘plangan tajribalar asosida yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash uchta variantga bo‘lish mumkin:

- 1) trenajyor dasturlarini qo‘llash;
- 2) test – dasturlarini qo‘llash;
- 3) kompyuterli tajriba.

Masalan, grafiklar bilan ishlashda, ko‘pincha, ularning kesishish nuqtalarini topish uchun xuddi shu grafiklarni yaratishga vaqt sarflash kerak, ammo elektron jadvallar bilan ishlaydigan kompyuter dasturi orqali buni juda tez amalga oshirish mumkin.

Multimedia texnologiyalari. Multimedia mahsulotlarini yaratish bilan bog‘liq texnologiyalar: elektron kitoblar, ensiklopediyalar, ma’lumotlar bazalari. Bu mahsulotlarda matnli, grafikli, audio va video axborotlar, animatsiyalar umumlashtirilgan bo‘ladi.

Kompyuterli modellashtirishning qo‘llanilishi:

1. Elektron jadvalni bir marta dasturlagan holda keyin kirish ma’lumotlarini almashtirib avtomatik ravishda hisoblash natijalari olinadi;
2. Dars davomida bir nechta tajribalar o‘tkazilishi, ularni tahlil qilish, grafigini qurish mumkin;
3. Grafikli modelni qurish nafaqat vazifani mexanik tarzda yechish, balki yechimning bir nechta variantlari borligini isbotlash imkonini beradi.

Shu tarzda ta’lim oluvchilarining mantiqiy fikrashi rivojlanadi. Darsning o‘quv, pedagogik va tarbiyaviy vazifalarini hal qilish uchun eng samarali va maqbul bo‘lgan jihat faol o‘qitish usullaridan foydalanishdir. Shuning uchun zamonaviy o‘quv texnologiyalari bugungi kunda talabalarning faoliyatini tashkil etishga, zamonaviy bilimlardan faol foydalanish uchun ko‘nikma, fazilatlar va vakolatlarni rivojlantirishga qaratilgan dolzarbdir.

Imo-ishora nutqi vositasida muloqotni o‘rganishda oliy ta’lim muassasalari talabalari ma’lum bir qiyinchiliklarga duch keladilarki, ularturli xil darajali muammolarni anglash va paydo bo‘lishsabablariga ko‘ra qiyinchilik turlarini tasniflash imkonini berdi:

- kommunikativ xususiyatdagi qiyinchiliklar;

- bilishga doir jarayonlarning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq qiyinchiliklar;

- talaba shaxsining individual o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq qiyinchiliklar;

- o‘qituvchi shaxsiga va o‘quv jarayonida qo‘llaydigan texnologiyalarga bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklar.

Ijodiy yondashuvlar asosida biz oliv ta’lim muassasalari talabalarida imo-ishora nutqiga o‘rgatish sifatini oshirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlarini ajratib ko‘rsatamiz: bular ichki motivatsion, kognitiv va ijtimoiy tayyorgarlikni shakllantirish bloklarini oluvchi kommunikativ kompetensiyani intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitishga tayyorgarlikni shakllantirishning maxsus o‘quv kurs; o‘quv kursda o‘qitishning faol shakllari hamda metodlarini va o‘zaro ta’sirlashuv metodlarini qo‘llash; tayyorgarlikning barcha turlari shakllanishini monitoring qilib borish.

Tarkibida ijtimoiy buyurtma, o‘qitish maqsadi, pedagogik jarayonning asosiy nazariy yondashuv, maxsus o‘quv kurs vositasida talabalarning o‘quv guruhini tashkil etishda amalga oshiriladigan shart-sharoitlar, o‘quv jarayonini tashkil etish shakli (o‘zaro ta’sirlashuvning faol shakllaridan foydalanish) va tayyorgarlik komponentlari shakllanganligini monitoring qilib borishdan iborat. Defektologiya fakulteti talabalarni kasbiy tayyorgarlik tuzilmasida ishora nutqni shakllantirish bilan bog‘liq komponent ham mazmuniy, ham uslubiy jihatdan eng kam ishlab chiqilgan

2.2.Bo‘lajak surdopedagoglarda imo-ishora nuqtisi vositasidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli

Defektologiya fakulteti talabalarni kasbiy tayyorgarlik tuzilmasida ishora nutqni shakllantirish bilan bog‘liq komponent ham mazmuniy, ham uslubiy jihatdan eng kam ishlab chiqilgan. Surdopedagog mutaxassislarini oliy ta’lim tizimida tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejallarda ishora nutqni o‘rganishga ajratilgan soatlar hajmi 30-60 soat doirasida bo‘lgan (sirtqi bo‘limda – 15-20 soat). Dasturlarda leksik minimum aniqlashtirilmagan, shuning uchun imo-ishora nutqni egallah jarayoni amalda talab darajasida shakllantirilmagan..

Daktilologiya va imo-ishora nutqiga o‘rgatish usullari ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo‘lgan. Talabalarni o‘qitishda odatda surdotarjimonlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan metodikadan foydalanilgan, bu esa birinchi bobda keltirilgan materiallar tasdiqlashicha yetarli natijali

bo‘lмаган.

Birinchidan, tarjimon bo‘lib asosan kar ota-onalari yoki eshitish buzilishlarga ega yaqin qarindoshlar tarbiyalagan eshitish qobiliyatti bor odamlar ishlaydi. Ular imo-ishora nutqni oilaviy-maishiy muloqot darajasida egallagan. Ularning malakasini Kar jamiyati tomonidan o‘tkaziladigan maxsus kurslarda oshirish tarjimonlarning leksik jamg‘armasini aniq tarjimaga zarur bo‘lgan yangi ishoralar bilan boyitishga qaratilgan.

Ikkinchidan, surdotarjimonlarni kasbiy faoliyati karlarga ishlab chiqarish, madaniy-oqartuv, ijtimoiy sohalarida xizmat ko‘rsatish shaklida o‘tadi. Ular xizmatlaring foydalanuvchilari, kar kattalar, ma’lum ta’lim va hayotiy tajribaga ega. Surdotarjimonlar ular uchun eshitish qobiliyati mavjud odamlar bilan munosabatlarda bog‘lovchi bo‘g‘in rolini bajaradi.

Surdopedagoglarga ishora nutq cheklangan ijtimoiy tajriba doirasida pedagogik ta’sirni amalga oshirish, eshitish qobiliyatida buzilishlar mavjud bolalarda bilimlar va qobiliyatlarni shakllantirish vositalardan biri sifatida zarur. Imo-ishora nutq orqali yetkaziladigan axborot kar bolalar uchun atrof dunyonibilish va karlarni ijtimoiylashuvining samarali vositasidir. Shuning uchun talabalarga universitetda o‘qish davrida kar o‘quvchilar bilan muloqot qilish va ta’lim jarayonini tashkil etish vositasi sifatida ishora nutqni egallah zarur.

O‘qituvchi imo-ishora tilni ilk bor o‘rganib boshlayotgan talabalar bilan ishlashi sababli u ishora va ishora iboralarni bajarish, imo-ishora kommunikatsiya bo‘yicha hamkorni tegishli harakatlarini idrok qilish ko‘nikmalar va hokazolarga zarur bo‘lgan o‘ziga hos harakat ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida ahamiyat berishi kerak. Imo-ishora tilni o‘rgangan tarjimonlarda odatda bunday zarurat paydo bo‘lmaydi. Demak, “Imo-ishora nutqini o‘rgatish” yangi modelini yaratish, “Imo-ishora nutqini o‘rgatish” kursini pedagogik texnologiyaga mos ham mazmunini, ham uni o‘qitish usullarini ishlab chiqish masalasi gavdalandi,

Bu masalani yechishda biz tomonidan ishora nutq bo‘yicha defektologlarni oliy ta’lim tizimida tayyorlashning yangi mazmunini aniqlashga asosiy mo‘ljal bo‘lgan quyidagi omillar inobatga olindi:

- milliy imo-ishora nutqining rasmiy mavqeい o‘zgarganligi
- davlat tomonidan uni maktabda o‘qitish va tarbiyalash vositalaridan biri sifatida tan olinishi;
- eshitishda nuйisoni bor bolalar uchun maktablarning o‘quv rejasiga “Imo-ishora nutq madaniyati” korreksiyalash komponentini kiritilishi;

▪mazkur predmet bo‘yicha dasturlar mazmuni.

Imo-ishora tilni o‘qitish bo‘yicha yaxshiroq modelni yaratish maqsadida biz chet tilga o‘qitish bo‘yicha innovatsiya yondashuvlarini tahlil qildik [81; 119; 120]. Ikkinchi tilga o‘qitishning nazariyasi va amaliyotini o‘rganish yangi paradigma (nazariy va amaliy jihatdan) strategiyasini shakllantirishga imkon berdi.«Modellashtirish» pedagogikaga texnika fanlaridan kirib kelgan va “haqiqatda amalga oshiriladiganning loyihamiyligi modelini yaratish” sifatida talqin etiladi [140, b. 224]. Modellashtirish muammosini ko‘pgina taniqli pedagoglar o‘rganganlar. Masalan, A. S. Makarenko “insonning kuchli va boy tabiatini, unda barcha yaxshisini” modellashtirishning tarafdoi bo‘lgan [92, b. 358]. V. A. Suxomlinskiy «modellashtirish» tushunchasiga pedagogik jarayonni qurish malakasini kiritgan. V. V. Krayevskiy pedagogika sohasidagi barcha ilmiy ish ma’lum ma’noda pedagogik loyihalarni yangilash bo‘yicha ish hisoblanadi, uning tashkil etuvchisi esa pedagogik modellashtirish hisoblanadi, deb ta’kidlaydi.

Modellashtirish – bu obrazlar, turli jarayonlar va tizimlarni imitatasiyalash, shuningdek salbiy omillarni bartaraf etishdir.

Pedagogik jarayon modellashtirish tufayli texnologikka aylanadi, uning natijasida esa “pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishlarini ta’milovchi pedagogik texnologiya yaratiladi, pedagogik modellashtirish amaliyot va pedagogik nazariya o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘inga aylanadi” [20, b. 31].

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak surdopedagoglarning imo-ishorani rivojlantirish jarayonini modellashtirishda biz korreksion-pedagogik faoliyatning tuzilishini inobatga oldik.

Faoliyat modeliga tadqiqotchilar ma’lum talablarni qo‘yadilar. Tadqiqot ishimizda biz, jumladan model haqiqatga mos (mutaxassisning kasbiy-nazariy va amaliy faoliyati o‘rtasidagi maksimal muvofiqlikni ta’minalashi kerak), dinamik (davriy ravishda qaytarilishi kerak, bunga ko‘ra jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni uzlusiz aks ettirishga erishish mumkin) va shu bilan birga konservativ (mazkur kasbiy hamjamiyat ega bo‘lgan an’anaviy kasbiy bilim, ko‘nikmalarni to‘plash va o‘zlashtirishni ta’minalashi kerak), vaqtida ilgarilovchi, mutaxassisni tayyorlashda istiqbollarni belgilovchi, ya’ni prognostik xususiyatga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaydigan olimlarning fikrlariga tayandik.

Yuqorida ifodalanganlarni inobatga olib, V.I. Zagvyazinskiy, N.A. Bessmertnaya, Ye.N. Jukatinskaya, A.Yu. Kruglikova, Ye.V. Koltakova, N.G. Petelina tomonidan mutaxassisni tayyorlash modellari ishlab chiqilgan, ammo bugungi kunda mutaxassisni tayyorlash modelini tuzishning o‘zi yetarli emas, kompetentlik asosidagi mutaxassisni tayyorlash modelini yaratish yanada dolzarb hisoblanadi (A.A. Derkach, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, V.A. Slastenin, V.D. Shadrikov va b.q).

Mazkur olimlarning nazariy ishlanmalarini inobatga olib, biz talabalar – bo‘lajak surdopedagoglarning imo-ishora nutqini rivojlantirish modelini loyihalashni kasbga zamonaviy talablar asosida tashkil etdik.

Pedagogika fanida olimlar tomonidan ta’lim jarayoni modeli va ta’limda modellashtirish to‘g‘risidagi zamonaviy ilmiy tasavvurlar to‘g‘risida quydagicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan. Model tushunchasi fanning bir qancha sohalarida qo‘llanadi, ko‘pgina jihatlarga ega bo‘lib quydagagi mualliflarning ilmiy tadqiqot ishlari uni o‘rganishga bag‘ishlangan. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish jarayoni, hodisalar va ob’ektlar tizimi modellarini ishlab chiqish va o‘rganish orqali tadqiq etish kabi sifatlarni tavsiflaydilar. Odatda ta’lim jarayonida model tadqiq etilayotgan ob’ekt (yoki hodisa) bo‘lib, mazkur ob’ekt elementlari o‘rtasidagi struktura, xususiyatlar, o‘zaro aloqalar va munosabatlarni soddalashtirilgan ko‘rinishni ifodalaydigan sxema, fizik konstruksiya, belgili shakllar yoki formulalar ko‘rinishida sun’iy yaratilgan ob’ekt sifatida ta’riflanadi.

MDH olimlaridan V.A.Shtoff [187; 22-b.] “Model tadqiqot ob’ektnini aks ettirib yoki ifodalab, uni shunday o‘rnini bosadigan va uni o‘rganish uchun bizga mazkur ob’ekt to‘g‘risida yangi ma’lumotlarni bera oladigan hayolan tasavvur etiladigan yoki moddiy amalga oshiriladigan tizim tushuniladi”deb ta’riflagan.

Pedagogik tadqiqotda modelning amaliy qimmati, asosan, ob’ektning o‘rganilayotgan tomonlariga nisbatan uning adekvatligi bilan, shuningdek, modelni qurish bosqichlarida modellashtirishning asosiy prinsiplari (ko‘rgazmalilik, aniqlik, ob’ektivlik) qanchalik to‘g‘ri inobatga olinganligi bilan belgilanadi[47;]. Modellashtirish – bu modellar iyerarxiyasini tuzish jarayoni bo‘lib, unda o‘quv-tarbiya jarayoni turli jihatlarda va turli vositalar bilan modellashtiriladi

Modellashtirish[187; 22-b.]ning samarador-ligini tavsiflash uchun pedagogikaga maxsus tushuncha – pedagogik validlik kiritilgan bo‘lib, u ishonchlilik, adekvatlilikka yaqin, ammo ulardan farqli hisoblanadi. Pedagogikada validlikni tarkibiy asoslab o‘tadilar: konseptual, kriterial va miqdoriy, chunki odatda ko‘p omilli hodisalar modellashtiriladi.

“Model”[189; 151-b.] atamasi qandaydir bir tizimni (namuna, andoza) ifoda etib, uning muayyan xususiyatlarini, boshqa, haqiqiy deb yuritiluchi tizim bilan aloqasini aks ettirishi va belgilangan ma’noda uni o‘rnini bosishga aytiladi.


Model tushunchasi ilm-fanning ko‘p sohalarida qo‘llaniladi. Model – sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar ko‘rinishida sun’iy hosil qilingan ob’ekt bo‘lib, tadqiq qilinayotgan ob’ektga o‘xshash bo‘ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini ob’ektning elementlari orasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushunarli tarzda aks ettiradi[93] deb ifodalangan.


Pedagogik tadqiqotlar jarayonida o‘qitish, tarbiya, ta’lim mazmuni, o‘quv faoliyati va boshqalar modellashtiriladi. Modellashtirish tadqiqot faoliyatining yaxlit turkumini aks etirsa, model uning mohiyatini sinchiklab o‘rganib chiqadi va nazariy xulosalar, g‘oyalar bilan boyitadi[40].

Shu tariqa, biz taklif etgan modelda talabalarni imo-ishora nutqiga o‘rgatishga qo‘yiladigan tashkil etishga asosiy talablar aks etadi.

Umuman olganda, biz modeldagи inobatga olingan resurslar to‘laqonli imo-ishora nutqini rivojlantirish uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalar va amaliy faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan surdopedagog shaxsini yaxlit shakllantirishni ta’minlaydi, deb hisoblaymiz.

Bo‘lajak surdopedagog imo-ishora nutqiga o‘rgatish modeli sxema ko‘rinishida 3-rasmda keltirilgan.





ТАЪЛИМ НАТИЖАСИ: ИМО-ИШОРА НУТҚИ РИВОЖЛАНГАН ТАЛАБА

2.2.rasm- Bo'lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o'rgatish modeli

Bo'lajak surdopedagog imo-ishora nutqini rivojlantirish modelining nazariy jihatlari uni samarali amalga oshirish sharoitlarida pedagogik tizimning yaxlitligiga erishadi. Ta'lim tizimida rivojlantirish modeli orqali talabalarda imo-ishora nutqini rivojlantirish modelining mazmun-mohiyati o'z ichiga o'quv, darsdan tashqari mustaqil ishlar, ta'lim muassasasining demokratik hayot tarzini shakllantirish, talabalarda jamoatchilik nazorati tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalarda ta'lim muassasasining barcha hayot sohalarini rivojlantiruvchi va ta'limda avvalo faoliyatli yondashuv, amaliy yo'naltirilgan interfaol o'qitish metodlarini qo'llashni ko'zda tutuvchi natija sifatida tushunish bilan bog'liq bo'ladi.

Biz ishlab chiqqan - Bo'lajak surdopedagoglarni imo-ishora nutqiga o'rgatish modelida ko'rsatilgan interfaol metodlar va texnologiyalar ilmiy izlanish mantiqida ko'zda tutilgan, tajriba-sinov tadqiqotining asosini tashkil etdi.

Kursning nazariy modeli mazmuni va pedagogik texnologiyalarni (usullar, o'quv jarayon shakllarining vositalari) tanlash bilan ta'minlagan predmetni o'qitishning maqsadlari va vazifalari, tamoyillari modelli tasavvurlariga

asoslangan bo‘lishi kerak. Modelni ishlab chiqish modelli tasavvurlarni bloklarga birlashtirish va ularni iyerarxiya ko‘rinishda tizimlashtirishdan iborat.

Imo-ishora nutqqa o‘rgatish maqsadi – talabalarni imo-ishora nutqdan pedagogik ta’sir qilish vositalarning biri sifatida (og‘zaki, yozma va daktil shakllardagi so‘z nutqi bilan bir qatorda) foydalanishni imkon berishni ta’minlovchi bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish.

O‘qitish maqsadlarini shakllantirish o‘qitish vazifalar blokini belgilaydi.

O‘qitish maqsadidan bevosita kelib chiquvchi *o‘qitish vazifalari* quyidagi modelli tasavvurlar bilan bog‘liq:

- *ishora nutqi haqidagi metalingvistik bilimga, ishora nutqning lingvistik tuzilmasini egallash, uning karlar kommunikativ va kognitiv faoliyatidagi, surdopedagogik jarayondagi roli va hokazolar ma’lum hajmi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish;*
- *talabalarning ishora nutqini qo‘llash kompetensiyasini egallash darajasi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish;*
- *bo‘lajak surdopedagoglarning bolalarga o‘quv va boshqa ma’lumotni yetkazish, ishora muloqoti va surdotarjimonlik ko‘nikmasini rivojlantirish va takomillashtirish.*

Mazkur masalalarni yechish uchun modelli tasavvurlari to‘g‘risida o‘qitish mazmuni va unga mos pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga imkon beruvchi asosiy tamoyillarni aniqlash kerak.

Mazmun va pedagogik texnologiyalar shakllanishi asoslangan **tamoyillar** modelning lingvistik, psixolingvistik, pedagogik va boshqa jihatlari to‘g‘risidagi modelli tasavvurlarni qamrab oladi. Tamoyillarni amalga oshirilishi quyidagi yondashuvlarni ta’minlaydi:

1. Ishora nutq to‘g‘risidagi metalingvistik axborotni tashkil etishga tizimli madaniylashtirilgan yondashuv.

Ishora til noverbal belgilar tizimi sifatida; ishora tilni karlar kommunikativ va kognitiv faoliyatidagi, ularni ijtimoiylashuvidagi (qarashlar evolyutsiyasi; zamonaviy konsepsiylar) roli va boshqalar haqida bilimlarni shakllantirish.

2. Nutqiy material tanlashning lingvistik mezonlariga tuzilmaviy-funksional yondashuv.

Talabalarning nutqiy faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantirishni ta’minlaydigan ishora nutq va semantik modellarning leksik-semantik birliklar tarkibini aniqlash: ishora iboralarni produtsiyalash va tushunish, kommunikativ

faoliyat.

3. Talabalar tomonidan ishora muloqotni egallash jarayonini tashkil etishga kommunikativ- kognitiv yondashuv.

Ishora nutq har xil funksiyalarni (kompleks tarzda) bajaruvchi turli iboralarni paydo bo‘lishini va retsepsiya qilishni rag‘batlantiruvchi o‘quv vaziyatlarni dasturlash: axborotli, regulyativ, hissiy-ekspressiv, fatik, metatilli va boshqalar; turli turdagи dialog va monologlarni qo‘sish; hamkorlar (o‘qituvchilar, kursdoshlar, kar o‘quvchilar va boshqalar) bilan nutqiy o‘zaro harakatlanishni izchil murakkablashtirish va boshqalar.

4. Pedagogik strategiyalarni tanlashga kompleks – texnologik yondashuv.

Ikkinchi tilga o‘qitishning an’anaviy usullar (tarjimada mashqlar, savol-javob turdagи suhbatlar, juftliklarda ishslash va hokazo) yangi kommunikativ texnologiyalar (maxsus ishlab chiqilgan yozuv tizimi yordamida imo-ishora va ishora iboralarni kodlash va dekodlash, videofilmlardan foydalanish, rolli va ishbilarmon o‘yinlar va hokazo) bilan birgalikda qo’llanadi. Bu turli didaktik masalalarni samarali yechishga imkon beradi.

O‘qitish mazmuni – o‘qitish maqsadlari, vazifalari va o‘qitish tamoyillarida mujassamlangan modelli tasavvurlar bilan bog‘liq konstruksiyalı blok.

Universitetda qabul qilingan talabalar tayyorlashning ikki bosqichli (ikki yillik umumdefektologik o‘qitish va uch yillik ixtisoslashuv) tuzilmasini aks etib, blok ikki kichkina blokdan iborat: bazaviy kurs (o‘qitishning 2-chi yili) va murakkablashtirilgan kurs (o‘qitishning 3-5 yillari). Predmet bo‘yicha o‘qitish chambarchas o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sir qiluvchi uch bo‘limdan (bloklarning bog‘lamlari) iborat:

- 1) ishora nutq lingvistikasi, sotsio- psixolingvistikasiga kirish; til (ishora) kompetensiyani shakllantirish;
- 2) ishora tilni kommunikativ-faoliyatli yondashuv (kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, ishora iboralarni yetkazish va idrok qilish) asosida o‘rganish;
- 3) ishora asosidagi kommunikatsiyani egallash (ishora iboralarni yetkazish va idrok qilish); kar bolalarni ishora nutqni rivojlantirish metodikasiga o‘rgatish (axborotni uzatish, kar o‘quvchilar bilan ishora muloqotni takomillashtirish), o‘quvchilar ishora iboralarini dekodlash.

Birinchi va ikkinchi bo‘lim materiali ham bazaviy, ham asosiy kurslarni (o‘quv material hajmi belgilangan) o‘rganishda taklif etiladi; uchinchi bo‘lim

materiali esa – o‘qitishning faqat murakkablashtirilgan bosqichida taklif etiladi.

O‘qitish mazmunida uning birinchi bo‘limida bat afsil to‘xtalamiz. Bazaviy kurs nutqiy material tanlashni tuzilmaviy-funksional tamoyilini amalga oshirib, biz pedagog va bolalarni darsda va darsdan tashqari vaqtdagi muloqot jarayonida zarur bo‘lgan til birliklari, leksik minimum va sintaksik konstruksiyalar modelini tanlashga harakat qildik. Leksik birliklar quyidagi tanlandi. Kar bolalar uchun maktablar 1-4 sinflari uchun barqaror darsliklar matnlarining dasturlari va lug‘at tarkibi tahlil qilindi: taxminan 2000 matn. Har bir so‘z uchun uni barcha matnlarda tez-tez takrorlanishi aniqlandi. Agar so‘z barcha to‘rt sinf darsliklarida uchragan holda, u tegishli ishora ekvivalentni o‘rganish bo‘yicha leksik minimum birliklarga qo‘shiladi. Shu tarzda 2000 dan ortiq birliklar tanlab olindi. Ulardan 690 so‘z (ekspert baholash asosida tanlab olingan) ishoralarini, ya’ni shu so‘zlar ekvivalentlarini o‘zlashtirish bazaviy kursning leksik minimumiga kiritildi.

